

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O`ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI

**AMALIY TILSHUNOSLIK, O`ZBEK TILI VA ADABIYOT O`QITISH
METODIKASI KAFEDRASI BITIRUVCHISI**

ALLAMUROTOVA DILFUZA

**«Mantiq ut-tayr» va «Lison ut-tayr» dostonlarining qiyosiy
tahlili.**

Mavzusidagi Bitiruv- Malakaviy Ishi

Ilmiy rahbar f.f.n. B. Muxiddinova.

Samarqand-2013

«Mantiq ut-tayr» va «Lison ut-tayr» dostonlarining qiyosiy tahlili.

Reja

I. Kirish

Malakaviy bitiruv ishining umumiy tavsifi

II. Asosiy qism:

1-bob. “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr” asarlarining yaratilish hamda o’rganilish tarixi;

2-bob. Asarlarning janri, kompozitsiyasi, uslubi va tilining qiyosiy tahlili;

3-bob. Ikki tilda yaratilgan bir mavzudagi dostonlarda badiiy mahorat ko’rinishlari;

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz I. A. Karimov aytganlaridek: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g’ururi sha’n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o’lmas so’z san’atkoridir”¹. Ma’lumki, xalqimiz boshidan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliyligimizni asrab-avaylashga, rivojlanishiga mutlaqo yo’l qo’yilmagan. Ana shunday davrda Navoiyshunos olimlarimiz dilidagi gaplarini ochiq-oydin aytolmagan. Mustaqillik sharofati tufayli, mumtoz adabiyotimizni har tomonlama chuqur o’rganishga keng yo’l ochildi.

Ijod- insonning yangi moddiy-ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati bo’lib hisoblanadi. Darhaqiqat, biz ham malakaviy bitiruv ishimizda Attor va Navoiy hazratlarining ma’naviy-axloqiy durdona asrlarini mingdan bir qirrasini ko’rsata olsak, maqsadimizga yetgan bo’lamiz. Alisher Navoiy yoshligidan Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini sevib o’qiganligi hech kimga sir emas va bu asar yodi bilan bir umr yashagani faqatgina “Lison ut-tayr”da emas, boshqa asarlarida ham sezilib turadi. Ma’lumki, Navoiy va Attor dostonlari sujeti qushlarning Semurg` tomon qilgan safari tasviriga asoslanib, bu tasvir orqali mualliflar o`zlarining muayyan falsafiy masalalarga doir qarashlarini obrazli tarzda ifodalab ko`rsatganlar.

Asarlardagi ibratli jihatlar hozirgi axborot texnologiyasi davrida o’quvchi yoshlarni tarbiyalashda ayni muddaodir. Zero, Prezidentimiz o’quvchi yoshlarni vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma’naviyat va ma’rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo’lish ruhida tarbiyalashda bunday asarlarning ahamiyati kattaligini bejizga ta’kidlamagan.

¹Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T.,2008.

Jumladan, “Mantiq ut-tayr” hamda “Lison ut-tayr ” dostonlaridagi ramziy timsollar inson ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Aynan mana shu jihati mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o’rganilish darajasi. O’zbek Navoiyshunos olimlari “Lison ut-tayr”ni ommalashtirish, ilmiy talqin qilishda talay yutuqlarni qo’lga kiritganlar. Xususan, akademik Vohid Zohidov “Navoiyning falsafiy qarashlari”(1948) mavzuida doktorlik dissertatsiyasini Bokuda himoya qilgan va “Shoir ijodining qalbi” nomli ajoyib tadqiqotini e’lon qilgan. Bundan tashqari “Navoiyning “Lison ut-tayr” asari” nomli maqolasida mazkur doston g’oyaviy-falsafiy nuqtai nazarlari asoslab berildi.

Adabiyotshunos N. Mallayevning “O’zbek adabiyoti tarixi” oliy o’quv yurtlari uchun darslik kitobida, Navoiyning bu dostoni haqida to’xtalib o’tilsa-da, unda asarning ayrim xarakterli tomonlarini belgilab beruvchi o’rinlar ham ko’zga tashlanib turadi. Taniqli Navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori A. H. Hayitmetov asarlarida mazkur dostonning metod va uslubiga doir qimmatli nazariy kuzatishlar mavjud. Tadqiqotchi dostonida qushlarning Hudhud boshchiligida Semurg’ tomon qilgan safari allegorik uslubda, Hudhudning ko’p hikoyatlari realistik, ba’zi hikoyatlar esa romantik uslubda yozilgan ekanligini ta’kidlab, demak, “Lison ut-tayr” ni ijodiy metod nuqtai nazaridan faqat bir metod talablaridan kelib chiqib tekshirish unchalik to’g’ri bo’lmaydi” degan xulosaga keladi va bu bilan doston uslubining murakkab ekanligiga ishora qiladi.

Izzat Sulton qalamiga mansub “Navoiyning qalb daftari” kitobida muallif Alisher Navoiy biografiyasini yaratishda birinchi galda shoirning o’z asarlariga murojaat qiladi va shu munosabat bilan “Lison ut-tayr” dostonida mavjud ba’zi biografik o’rinlardan mohirona foydalanadi. Shuningdek, muallif Navoiyning mazkur dostoni hali mutaxassislar tomonidan yetarli o’rganilmaganligini ham alohida ta’kidlab o’tadi. Filologiya fanlari doktori A. Abdug’afurov tadqiqotida esa doston tarkibidagi ayrim hikoyatlarning satirik va yumoristik xususiyatlari to’g’risida qiziqarli ilmiy mulohazalar bayon etilgan. Sharafiddin Sharipov

“Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonining genezisi va g’oyaviy-badiiy xususiyatlari”(1982) nomli ilmiy tadqiqoti hamda dostonning nasriy bayoni muallifi hamdir. Sharafiddin Eshonxo’jayev ilmiy-tanqidiy matnni yaratib, dostonning bir ommaviy nashrini amalga oshirgan. Shu jumladan sharqshunos olim Bertelsning “Navoiy va Attor”monografiyasi ham bu mavzu bo’yicha katta ilmiy tadqiqotlardan biri bo’ldi. “Mantiq ut-tayr”ni forschadan Najmiddin Komilov va Mahkam Mahmudovlar tarjima qilib, nasriy bayonini nashr ettirishga muvaffaq bo’ldilar (2006).

Attor va Navoiy ijodini mukammal tahlil etish, o’rganish, g’oyaviy-badiiy qimmatini, ma’naviy barkamol qirralarini oydinlashtirmoq zarurdir. Shu jihatdan bu ikki dostonni o’rganishga ehtiyoj seziladi.

Bitiruv ishning ilmiy yangiligi. Malakaviy bitiruv ishimizda ikki tasavvufiy mazmundagi epik dostonlarning g’oyaviy-badiiy, uslubiy va poetik xususiyatlari haqida hozirgacha yaratilgan ilmiy tadqiqotlardagi fikrlarni tahlil etish, umumlashtirish va bu mavzudagi yangi masalalarni aniqlab olish lozimdir. Xolbuki, ikki buyuk shoirning asarlari mustaqillikdan so’ng bir-biriga qiyos qilib alohida, atroflicha keng tahlil etilmagan. Bu asarlarni qiyosiy nuqtai nazardan o’rganish undagi yangi-yangi g’oyaviy mazmunlarni ochib beradi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Ilmiy ishning maqsadi: Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonini jahon badiiy tafakkuri namunalaridan biri bo’lmish Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr ” dostoni bilan qiyoslab o’rganish, asarlarning o’zaro uyg’un va farqli jihatlarini o’rganish asarlarning badiiy olamini ochib berish ishning bosh maqsadini tashkil etadi.

Ilmiy ishning vazifalari:

-asalar matnini qiyosiy o’rganish;

-“Lisonut-tayr” va “Mantiq ut-tayr”asalarining shoirlar ijodiy merosida tutgan o’rni va mavqeyini yoritib, asarlarning yaratilish tarixiga to’xtalish;

-asarlarni ularning janri, mavzusi, mazmuni va g'oyaviy-badiiy yo'nalishi jihatidan talqin va tahlil qilish;

-shoirlarning poetik uslublaridagi o'xshash jihatlar va farqlar haqida fikr bildirish;

-asarlarni badiiy san'at qonuniyatlari nuqtai nazaridan tahlil etish.

Tadqiqotning manbai. Malakaviy bitiruv ishini bajarishda Prezidentimiz I. A. Karimovning milliy ma'naviyat va madaniy merosimiga oid dasturiy ko'rsatmalari hamda milliy istiqlol mafkurasini bosh mezon qilib oldik.

Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" va Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonlari malakaviy bitiruv ishining asosiy manbalari hisoblanadi. O'zbek adabiyoti va xususan ikkala doston janrining nazariy asoslari hamda hikoyatlar mazmuniga oid taxminlarimizda mamlakatimizning bir qator yetakchi mutaxasislari tadqiqotlaridan imkon va ehtiyoj doirasida foydalandik. Xususan, yuqorida tilga olingan Sh. Sharipovning "Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonining genezisi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari" hamda sharqshunos olim Bertelsning "Navoiy va Attor" (Ibodulla Mirzayev tarjimasi) monografiyalari asosiy ilmiy manba vazifasini o'tadi.

Malakaviy bitiruv ishining tarkibiy tuzilishi. Ishning umumiy hajmi 65-bet bo'lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-bob

“MANTIQ UT-TAYR” VA “LISON UT-TAYR” ASARLARINING YARATILISH VA O’RGANILISH TARIXI.

Sharq adabiyotida “Mantiq ut-tayr” hamda “Lison ut-tayr” kabi asarlarining yaratilishiga qadar ushbu sujet asosida yozilgan asarlar haqida ma’lumot berish ayni muddaodir. Bundan ko’zda tutilgan maqsad, avvalo, ushbu sujetning vujudga kelish sababi, manbalari va rivojlanish qonuniyatlarini o’rganish bo’lsa, ikkinchidan bu ikki tilda yaratilgan asarlarning o’ziga xos jihatlarini, betakror ko’rinishlarini aniqlashdan iboratdir.

Sharq mumtoz adabiyotida muayyan an’anaviy sujetlarining yaratilishi va rivojlanish tarixi bo’lganidek, qushlarning ramziy sarguzashtlari asosida yozilgan “Mantiq ut-tayr” hamda “Lison ut-tayr” tipidagi allegorik-falsafiy asarlar kelib chiqish va rivojlanishining ham o’ziga xos tarixi bor.

Ma’lumki, Navoiy va Attor dostonlari sujeti qushlarning Semurg` tomon qilgan safari tasviriga asoslanib, bu tasvir orqali mualliflar o`zlarining muayyan falsafiy masalalarga doir qarashlarini obrazli tarzda ifodalab ko`rsatganlar.

Xuddi shunga o`xshash holat, ya`ni qush tili vositasida falsafiy masalalar xususida mulohaza yuritish Navoiy va Attordan ilgari ham mavjud bo`lib, sharqning bir qator yirik mutafakkirlari o`z asarlarini mazkur usulda yozishgan. Bular jumlasiga Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning “Risolatut-tayr”, Abu Hamid Muhammad G`azzoliy (1040-1111)ning shu nomli risolasi, Shahobiddin Suhravardiy (vafoti 1191-yil) qalamiga mansub “Risolayi musammo ba safari Simurg`” kabi asarlarni ko`rsatish mumkin.

Ba`zi olimlarning fikricha Ibn Sinoning “Risolatut-tayr”i sharqda qushlar allegorizmiga asoslanib yozilgan ilk badiiy asar bo`lib, Attor va Navoiy dostonlarining yaratilishida asosiy vazifani bajargan. Xususan prof. A.M.Bahouddinov Ibn Sino Risolasining sharq adabiyotiga, ko`rsatgan ijobiy ta`siri haqida gapirar ekan, Navoiy ham “Lison ut-tayr” dostonini yozishda undan ta`sirlanganini qayd etadi. Shu jumladan, A.Irisov ham bu nuqtai nazarni quvvatlab, shunday mulohaza yuritadi: “Risolatut-tayr” asosan ramz-ishoralar bilan yozilgan bo`lib, Farididdin Attorga “Mantiq ut-tayr”, Navoiyga “Lison ut-tayr” kabi asarlarni yozishda asosiy turtki bo`lgan deyish ham mumkin. Chunki, bu sohada dastlab Abu Ali ibn Sino asar yozdi, undan so`ng bir qancha yozuvchilar qalam tebratdilar.²

Sh.Sharipov ham bu jarayonga o`z fikrini bildirib shunday deydi: “Darhaqiqat, Ibn Sinoning mazkur risolasi faqat Attor va Navoiy dostonlari vujudga kelishida bir turtki bo`libgina qolmay, shu bilan birga, Ibn Sinodan so`ng qush tili vositasida yaratilgan barcha asarlar, jumladan, G`azzoliy va Suhravardiylarning nomlari qayd etilgan asarlari maydonga kelishida ham asosiy omillardan biri rolini o`tadi. Shu jihatdan mazkur risola sharq adabiyotida keng tarqalgan qushlar haqidagi traditsion asarlarning kelib chiqishida muhim rol o`ynagan manbalar sifatida alohida diqqatga sazovordir.”³

Ibn Sinoning “Risolatut-tayr” asari ikki xil nom: “Risolatut-tayr” (Qush risolasi) va “Kitobush – shabaka vat-tayr” (Tuzoq va qush kitobi) nomlari bilan yuritilgan. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha: Bir guruh qushlar ovchi tuzog`iga ilinib, undan qutilishga harakat qilishsa-da mehnatlari foyda bermaydi. Natijada ular ozodlikka chiqishdan umid uzib, o`zlarining tuzoqda ekanliklarini ham ma`lum darajada unutadilar. Shunda ular tepasida bir gala qush paydo bo`ladi. Ma`lum bo`lishicha, bu qushlar ham tuzoqqa ilingan bo`lib, keyinchalik undan qisman xalos bo`lishgan ekan. Ularning bosh va qanotlari ozod bo`lsada,

² Ирисов А. Абу Али ибн Синонинг “Саломон ва Ибсол” кассаси. Тошкент, 1973, 14 - бет.

³ Шарипов Ш.Алишер Навоий “Лисон ут-тайр” дostonининг генезиси ва ғоявий-бadiий хусусиятлари.Тошкент, 1982, 10-бет.

oyoqlarida tuzoq qoldiqlari saqlanib qolgan edi. To`r ostidagi qushlar birodarlari yordamida bo`yin va qanotlaridagi tuzoq changalidan xalos bo`lishadi, lekin ular oyog`idagi tuzoq bandlarini olib tashlashning sira iloji bo`lmaydi. Shundan so`ng ularning hammasi bundan xalos bo`lishda yordam berishni so`rab, keng vodiylar va baland tog`lar osha buyuk podshoh huzuriga yo`l oladilar. Nihoyat, sakkizta tog`-vodiy ortda qolib, ko`zlangan manzilga yetib keladilar. Qasrga kirganlarida sahnadan parda ko`tarilib, qushlarning ko`zi shohga tushadi: u husn-u malohatda shunchalik tengsiz bir siymo ediki, buni ko`rgan qushlarning aqli hushi boshdan uchib, bu yerga nima uchun kelganliklarini ham unitadilar. Shoh o`z lutf-marhamati bilan ularning es-hushini joyiga keltiradi. Qushlar dadillanib, o`z istaklarini bildiradilar. Shoh ularga “Oyoqlaringizdagi tuzoqni qo`ygan kishidan bo`lak hech kim yecholmaydi. Men unga bir elchi yuboraman. Elchi sizlarni tuzoqdan qutqarishni ovchidan iltimos qiladi”, deya javob beradi. Qushlar izlariga qaytadilar.⁴

Ibn Sinoning “Risolatut-tayr” asarini prof Sh.Sharipov o`z monologiyasida shunday izohlaydi: “Bu o`rinda shuni alohida ta`kidlash lozimki, asardagi mazkur sujet Ibn Sinoning sharq folkloridan yaqindan tanish va undan mohirlik bilan foydalana olish qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Chunki, shunga o`xshash asarlar Ibn Sinoga qadar ham sayyor sujet sifatida o`rta Osiyo, arab, fors va hind xalqlari orasida keng tarqalgan bo`lib, bizningcha, Ibn Sino ulardan ijodiy foydalangan. Bu esa o`z navbatida mazkur sujetning manbai xalq og`zaki ijodida ekanligidan guvohlik beradi. Bu sujetning ayrim variantlarini mashhur hind eposi “Kalila va Dimna”, shuningdek, hind va o`zbek xalq og`zaki ijodining ayrim na`munalari tarkibida ham uchratish mumkin.

Xuddi shunday allegorik obrazlar, Rabg`uziyning “Qissasi Rabg`uziy” asarida ham uchraydi. Xususan, rivoyatlarda aytilishicha: “Yuzlab qushlar Sulaymon alayhissalom qayerga borsa, boshi uzra qanotlarini soyabon qilib

⁴ Абу Али ибн Сино. Тайр кассаси. - “Фалсафий рисоалар” . Тошкент, 1963, 14-21-бетлар.

borgan. Shohning oltin kumushdan bunyod etilgan, bir yog'och (6km) maydon ichida turgan taxti uzra ham qushlar saf tortib, soyabon vazifasini ado etgan.⁵

Ibn Sinoning "Risalatut-tayr" asari hayotida ro'y bergan voqealar bilan bog'liq ravishda sharhlash A.Irisov, U.Sultonov ishlarida ko'zga tashlanadi. Masalan, A.Irisov Ibn Sino tarjimai holidagi ayrim lavhalar, xususan, Mahmud G'aznaviy Xorazmni bo'ysundirgach (1017-yil), olimning u yerdan Eron tuprog'iga Mahmud qo'li yetmaydigan joylarga bosh olib ketishi va uning ta'qibidan qochib, turli shaharlarda sarson-sargardonlikda hayot kechirganligiga asoslanib shunday yozadi. "Asardagi tuzoq-Mahmud G'aznaviyning changali, qushlar boshi qanotlarining ozod bo'lishi esa Xorazm shohning olimlarga o'z taqdirlarini o'z qo'llariga berishi, qushlar oyoqlarida tuzoq qoldiqlarining qolishi". Ibn Sino qaysi o'lka, qaysi shaharga borsa, hamon muhayyo bo'lib turgan Mahmudning ta'qibi, qushlar qochib kezib yurgan shaharlardir".⁶

Bu asarni ba'zilar Ibn Sinoning tarjimai holi bilan bog'lab, biografik xarakterdagi asar sifatida izohlasalar, boshqa bir guruh olimlar esa ijtimoiy-siyosiy mazmundagi asar deb, feodal davr muhiti bilan bog'laydilar.

Bizningcha, mazkur asar falsafiy mazmundagi badiiy asar bo'lib, unda muallif o'sha davr falsafasining ayrim muhim nazariy masalalariga oid o'z qarashlarini allegorik shaklda ifoda etadi.

Sharq xalqlari orasida qadim zamonlardan buyon insonning ruhi qush sifatida tasavvur qilingan va bu badiiy adabiyotda "jon qushi", "ko'ngil qushi", "murg'i dil" iboralari bilan ifodalangan.

Ibn Sino asarida ana shu tasavvurlarga asoslanib, qushlar obrazini inson jonining majoziy obrazi sifatida talqin etadi. Diniy va tasavvuf ta'limotlariga ko'ra inson joni tananing ichida bo'lib, tana u uchun g'o'yo qafas, tuzoq yoki g'ilof vazifasini bajaradi. Chunki, tanamiz moddiy xarakterga ega bo'lib, oziq-ovqat

⁵ Носируддин Бурхониддин Рабғузий. Киссаси Рабғузий. Биринчи китоб. Тошкент, 1990, 34-бет.

⁶ Ирисов А.Абу Али ибн Синонинг "Саломон ва Ибсол" киссаси. 18-19-бетлар.

iste`mol qilamiz va boshqa bir qancha tashqi mavjud bo`lgan narsalarga ehtiyoj sezamiz. Ibn Sino asardagi podsho obraziga “nuqsonsiz kamol, zavolsiz jamol” egasi sifatida ta`rif beradi.⁷

O`sha davrda bu sifatlar faqat xudogagina nisbat berilishini hisobga oladigan bo`lsak, mazkur obraz xudoning simvolik obrazi ekanligi ma`lum bo`ladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, asardagi qushlar-inson ruhi, tuzoq-inson tanasi, ovchi-tabiati, podsho esa xudoning majoziy obrazlaridir.

Ibn Sinoning bu asarida allegorik sujetlar orqali insonning moddiy dunyoga va Allohga, bo`lgan muhabbati, falsafiy muammo sifatida o`rtaga tashlangan. Asarga falsafiy nuqtai nazardan yondashganda, uni quyidagicha izohlash mumkin: qushlar tuzoqdan to`liq xalos bo`lmaganliklari sababli, inson ham tanasidan tashqari mavjud bo`lolmaydi.

Demak, Ibn Sinoning fikricha, inson ruhi moddiy borliq bilan birgalikda mavjud bo`lib, ular o`zaro chambarchas aloqadadirlar.

Ibn Sino “Risalatut-tayr” asarining yaratilishi sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikr va badiiy tafakkuri taraqqiyotida chuqur iz qoldirib, o`zidan keyingi arab, fors-tojik va turkiy tillardagi adabiyotlarda shu xil uslubda asar yozish an`anasini boshlab berdi.

Shu jumladan, Attorning “Mantiq ut-tayr” hamda Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonlarining ildizi ham bevosita Ibn Sinoning “Risalatut-tayr” asariga bog`liqdir.

Ibn Sinodan so`ng allegorik tasviriy usuldan foydalanib yozilgan barcha risola va dostonlar, jumladan, Muhammad G`azzoliyning “Risalatut-tayr” asarida ham yaqqol ko`zga ko`rinadi. Bu asarda G`azzoliy o`zining tasavvur va islom mafkurasi uchun umumiy bo`lgan g`oyalarni bevosita emas, balki bevosita ya`ni, Ibn Sino risolasiga o`xshash qush tili risolasiga badiiy ifoda etishga harakat qiladi.

⁷ Абу Али ибн Сино. Тайр кассаси. 20-бет.

Asar quyidagicha boshlanadi: “Tabiati va xillariga ko’ra turli-tuman bo’lgan qushlar yig’ilishib, o’zlariga bir podshoh saylashga qat’iy qaror qilishdi. Ular G’arb tomonda yashaydigan Anqodan bo’lak qush bunga loyiq emas, degan fikrga keldilar va uning o’sha tomondagi orollardan birida turishini aniqladilar. Shunday qilib, ulardagi zavq-shavq kuchli istakka aylandi va unga tomon yurib, uning makoniga borishga ahdu paymon qildilar, uning xizmatida bo’lishni baxt-saodat deb hisobladilar”.

G’azzoliyning talqinicha, shoh axtarib yo’lga chiqqan qushlar xudo vasliga erishmoq uchun tariqat yo’liga kirgan so’fiylarning majoziy timsoli bo’lib, Anqo esa ularning eng oliy hayotiy ideali sifatida xudoning simvolik obrazidir. Risoladan quyidagicha xulosa kelib chiqadi: agar inson bizni o’rab turgan moddiy dunyo faoliyatidan voz kechib, zohidlik va oriflik yo’lini bosib o’tsa, u eng yuksak baxtga-Alloh taolo vasliga yetishmog’i mumkin. Buning uchun u sirlar olami va g’ayb ilmiga qadam qo’ymog’i va bu yo’lda har qanday to’siqqa duch kelsa-da, ortga chekinmasligi lozim. Ana shunda u vahdat ya’ni, Alloh bilan birlashadi. G’azzoliy bunga namuna sifatida qushlarning safari davomida turli-tuman qiyinchiliklar, chidab bo’lmas ofatlarga duchor bo’lishi, qushlarning ko’pchilik qismi nobud bo’lishiga qaramay, o’z yo’llarini tark etmasligi va shu tariqa Anqo huzuriga yetib borib, u yerda baxt-saodatga erishganliklarini aytadi. Asarda qushlar bilan Anqo o’rtasida savol-javoblar ham mavjud. Ularda G’azzoliy tasavvufga oid ayrim masalalarni Qur’on oyatlari asosida izohlaydi. Masalan, qushlar o’zlarining yo’lda halok bo’lgan hamrohlari taqdiri haqida so’raganlarida shunday javob beriladi: “Tangri yo’lida halok bo’lganlarni o’lik deb emas, hayot deb hisoblanglar”. Umuman, risolada Qur’ondan yigirmaga yaqin oyat keltirilgan bo’lib, ularning mazmuni insonlarni ezgu ishlar qilishga chorlash, bu yo’lda ularni qanday qiyinchilik va tuhfalar kutayotganligi haqidadir. Bularning barchasi so’fizmi islom aqidalariga moslashtirishda ko’zga tashlanadi.

Ma’lumki, G’azzoliyning ko’pchilik falsafiy asarlari buyuk yunon faylasufi Aristotel va uning sharqlik izdoshlari Abu Nasr Forobiy, ayniqsa, Ibn Sino kabi

mutafakkirlarning bizni o'rab turgan moddiy dunyo qarashlariga qarshi qaratilgan edi.⁸ Bu holat uning "Risolatut-tayr" asari o'z g'oyaviy mazmuni va falsafiylik jihatidan Ibn Sinoning shu nomli risolasida ilgari surilgan fikrlarga zid bo'lib, unga raddiya sifatida vujudga kelgan, deb xulosa chiqarishga asos beradi. Xususan, har ikki asar sujetidagi voqea-hodisalarning bir-biriga zid ravishda tasvirlanishi ham shunga guvohlik beradi. Mazkur asarlardagi bu allegoriyalar o'z falsafiy mazmuniga ko'ra ham bir-biriga zid turadi. Chunonchi, Ibn Sino ushbu majozdan ruhimiz va moddiy olamning o'zaro aloqadorligi, ularni bir-biridan ajratib qarash mumkin emasligi haqidagi nazariyani ilgari sursa, G'azzoliy esa jonning ilohiy mohiyatga ega ekanligi, agar inson zuhd va riyozatga ko'ngil qo'ysa, uning ruhi mutlaq ruh ya'ni, Alloh bilan birlashib keta olishi mumkinligi so'fiyona-diniy g'oyalarni ifoda etadi. Ibn Sino asariga tamoman zid bo'lgan bu g'oyalar G'azzoliy yashagan davrda juda keng tarqalgan va turli vositalar bilan targ'ib etilmoqda edi. Ayniqsa, G'azzoliy o'zining "Ihyoi ulumad-din", "Taxofutul-falosifa" va boshqa asarlarida bu masalaga juda katta ahamiyat beradi, uning to'g'riligiga shubha bildirganlarni keskin tanqid ostiga oladi. Bizningcha, uning "Risolatut-tayr" asari ham ana shu maqsadda yozilgan bo'lib, bu o'rinda muallif Ibn Sinoning kalom falsafasi va so'fiyona ta'limotga zid keluvchi yuqoridagi nuqtai nazariga allegorik tarzda raddiya bildiradi. G'azzoliyning Ibn Sino asari bilan bir xil nomlangan va bir xil usulda yozilgan maxsus falsafiy risola bitishidagi asosiy sabab ham shunda bo'lsa kerak. Mazkur risola o'zining bu xususiyatlari bilan Sharq adabiyotidagi qushlar allegorizmidan foydalanib yozilgan asarlarda aniq tarixiy sharoit bilan bog'liq holda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli falsafiy qarashlarning o'zaro kurashi o'z aksini topib, "qush tili" ana shularni ifoda etishda muhim badiiy vosita rolini bajarganligidan dalolat beradi.

Nemis olimi Helmut Ritter, chex sharqshunosi Yan Ripka, Eron olimi Badi'uzzamon Firuzonfar va boshqalarning tadqiqotlarida Attor o'zining "Mantiq ut-tayr" dostonini G'azzoliyning mazkur risolasidan ilhomlanib yozganligi qayd

⁸ Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарк мутафаккири. Тошкент, 1971, 161-162-бетлар.

etiladi. Darhaqiqat, har ikki asar syujeti, obrazlar sistemasi va boshqa tomonlari o'zaro chog'ishtirib ko'rilsa, bu fikrning haqiqatga muvofiq kelishi ma'lum bo'ladi. Demak, ushbu asardagi qushlarning ramziy sarguzashtlaridan hikoya qiluvchi allegorik syujet Attor dostoni va unga nazira sifatida turk va o'zbek adabiyotlari tarixida yaratilgan asarlar, jumladan, Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni syujeti uchun ham ilk taraqqiyot bosqichi vazifasini o'taydi. Shunga ko'ra, G'azzoliyning "Risolatut-tayr" asari o'zining ilohiy-diniy mazmunidan qat'iy nazar, Sharq mumtoz adabiyotida an'ana tusiga kirib, ko'p marta murojaat qilingan syujetlardan birining kelib chiqishida muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qilganligi va umuman, qushlar allegorizmi asosida yozilgan asarlarning tipik bir namunasi sifatida ma'lum e'tiborga sazovordir.

Fors-tojik shoiri va mutafakkiri shayx Abu Tolib Farididdin bin Ibrohim Attor Nishopuriy (taxminan 1141-1229) o'z ijodiy faoliyati bilan Sharq xalqlari mumtoz adabiyoti tarixida muhim o'rinlardan birini egallaydi. Feodal tuzum davrining farzandi bo'lgan Attor asarlarida "ezilgan tabaqalarning, xususan, shahar aholisining kayfiyati mistik shaklda ifoda etiladi"⁹. Uning dunyoqarashi va ijodi g'ayb ilmini o'zida aks ettirsa-da, asarlarining mohiyati va zamiri o'ta murakkab xarakterga ega.

Shoirning ko'p sonli asarlari orasida "Mantiq ut-tayr" dostoni alohida o'rin egallaydi. Sharq mumtoz adabiyotida mashhur asarlardan biri hisoblangan bu dostonida Attor tasavvuf ta'limotining asosiy qonun-qoidalarini majoziy shaklda izchil bayon etadi. Shoir bu asarni yozishda G'azzoliy risolasida qalamga olingan sujetni bejiz tanlamagan. Chunki bu syujet uning uchun tasavvuf ta'limotiga oid o'z mulohazalarini sistemali tarzda bayon etishga qulay bir vosita bo'libgina qolmay, bu sohada obrazli falsafiy mushohada yuritishning yangi ufqlarini ham ochar edi.

Chunonchi, Attor G'azzoliy risolasidagi majoziy sujetni har tomonlama rivojlantirib, uni yangidan talqin etadi. Uning bu mavzuni rivojlantirishdagi

⁹ Хайитметов А. Шарк адабиётининг ижодий методи тарихидан. 176-бет.

xizmati avvalo asar bosh qahramonlari hisoblangan qushlar obraziga bo'lgan munosabatda sezilib turadi. Attor G'azzoliydan farqli ravishda "Risolatut-tayr"da umumiy tarzda talqin etilgan qushlar obrazini ba'zi o'rinlarda aniqlashtirishga harakat qiladi. Dostonda Bulbul, Tovus, To'ti, Tazarv, Kabk(Kaklik), Bum(Boyqush), Uqob(Burgut), Bat(O'rdak) va boshqa qushlar obrazi mavjud. Shoir mazkur obrazlarni jamiyatda tutgan o'rni, mashg'uloti va xarakteri jihatidan bir-biridan ajralib turuvchi muayyan inson tiplarining majoziy obrazi sifatida talqin etadi. Bu sohada u, asosan, o'z davri xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot va tasavvuf she'riyatida to'plangan boy tajribalarga suyanadi. Masalan, Uqob obrazi folklor va badiiy adabiyotda bo'lgani kabi mag'rurlik timsoli, Tovus esa o'z tashqi go'zalligi bilan faxrlanib yuruvchi usti yaltiroq, ichi qaltiroq kishilarning allegorik obrazidir. Qushlar obrazini bu xil tizimlashtirish shoir uchun tasavvufga doir o'z mulohazalarini kengroq bayon etish imkonini beradi.

Shoirning mazkur mavzuni rivojlantirishda qo'shgan hissasini belgilovchi omillardan yana biri dostonda Hudhud obrazining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Hudhud asarning bosh, yetakchi qahramonlaridan biri bo'lib, asarda tasvir etilgan barcha voqea-hodisalar bevosita uning faoliyati bilan uzviy bog'liq holda berilgan. G'azzoliy risolasi sujetida bu personaj ishtirok etmaydi. Attor Hudhud obrazini ushbu mavzu doirasiga olib kirar ekan, birinchi galda u haqdagi Sharq folklori va Qur'onda (XXVII sura, 20-oyat) mavjud ayrim tasavvurlariga asoslanadi. Rivoyat qilinishicha, Hudhud go'yo Sulaymon payg'ambarning eng yaqin sirdoshi va maslahatchisi bo'lib, u bilan Sabo shahri malikasi Bilqis o'rtasidagi sevgi munosabatlarida vositachilik rolini o'tagan va shu xizmatlari uchun payg'ambar nazariga sazovor bo'lgan qush emish. Boshqa rivoyatlarda ham Hudhud ana shu tarzda donishmand va maxfiy sirlaridan xabardor qush sifatida talqin etiladi. Shoir bu aqidalardan ijodiy foydalanib, Hudhudni Simurg' tomon safarga chiqqan qushlarning yo'l boshchisi sifatida tasvirlaydi. Hudhud obraziga yuklangan bu vazifa uni tariqat yo'lga kirgan so'fiylar boshlig'i (pir yoki shayx)ning umumlashma majoziy obrazi darajasiga ko'taradi. Shunga muvofiq tasavvufga oid barcha nazariy va amaliy masalalar uning tilidan bayon etiladi.

G'azzoliy va Attor asarlari o'rtasidagi o'ziga xoslikni Anqo va Simurg'¹⁰ obrazlari misolida ham ko'rish mumkin. Anqo (Simurg') barcha qushlar podshosi ekanligi to'g'risidagi qadimiy tushunchalar har ikki muallifga uni xudoning ramziy obrazi sifatida qo'llash uchun asos bergan, bu jihatdan ular umumiy xususiyatga ega. Lekin Attor bu obraz nomini fors-tojik xalqlari orasida mavjud Simurg' nomi bilan o'zgartiradi va shu orqali unga juda katta g'oyaviy-badiiy vazifa yuklaydi. Dostonda hikoya qilinishicha, yetti vodiy: Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat va Faqru fanolardan uchib o'tish jarayonida Simurg'ni izlab yo'lga chiqqan ko'p sonli qushlarning deyarli barchasi halok bo'lib, faqat o'ttiztasi ko'zlangan manzilga yetib keladi. Ana shu o'ttizta qush (si murg') Simurg' (xudo)ga aylanadi, o'zlarida Simurg'ni ko'radi: "O'ttiz qush atrofga zudlik bilan qaradi. Shubhasiz, bu o'ttiz qush o'sha Simurg'ning o'zi edi". Attor bu o'rinda "si murg' " so'zi yordamida so'z o'yini qilib, xudo va insonning bir butunligini obrazli tarzda ifodgalab ko'rsatgan. Bu falsafiy qarash G'azzoliy risolasida olg'a surilgan tasavvufiy va islom dinidan jiddiy farq da, inson mavqeyi past bo'lgan o'rta asr sharoitida uni ilohiylashtirishni mavjud ekanligi bilan o'sha davr nuqtai nazaridan ma'lum ijobiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, shoirning mazkur qarashlari uni ilk tasavvufning yirik namoyondalaridan biri bo'lgan va "anal-haq" ("men-xudo")degani uchun dorga osilgan Mansur Halloj (858-922) ta'limoti bilan yaqinlashtiradi. Shuning uchun ham mavlono Jaloliddin Rumiy u haqda "Shayx Mansur Halloj nuri yuz ellik yildan so'ngra Shayx Farididdin Attor ruhig'a tajalliy qildi"¹¹ deganida tamoman haqli edi.

Attorning fikricha, dunyodagi barcha narsalar, jumladan, inson ham xudoning soyasidan iborat bo'lib, inson o'z hayotining mohiyatini ana shu soyalikdan oftob (xudo)ga qarab intilishda, o'z asliga qaytishda deb bilmog'i kerak. Buning uchun u bizni o'rab turgan moddiy dunyoga ahamiyat bermasdan, zohidlik va tarkidunyochilikka berilishi, ma'naviy kuchning hammasini

¹⁰ "Гиёсул-луғот", "Комусул-аълom" ва бошқа манбаларда берилган маълумотларга кура, Симурғ ва Анко исми бору жисми йук бир афсонавий кушнинг икки хил номидир.

¹¹ Алишер Навоий. Насойимул-мухаббат. – Асарлар. 15 томлик. 15-том. Тошкент, 1968, 169-бет.

“haqiqat”ni bilishga sarflamog’i lozim.Oqibatda u marifatga erishib, xudoni tanish darajasiga ko’tariladi.Bu paytda uning uchun barcha dinlar teng ahamiyatga ega bo’lib, butga sig’inish, olovga topinish, yohud Ka’baga ibodat qilishning zarracha ahamiyati qolmaydi.Chunki u hamma narsada, hamma o’rinda va o’zida ham xudoni his qila boshlaydi.Shu tariqa u “haqiqat”ning asl mohiyatiga tushunib, Alloh vasliga muyassar bo’ladi.

Attorning bu qarashlari ba’zi masalalarda: turli dinlarni mohiyat jihatidan bir xil deb tan olish, hamma narsada xudoni ko’rish nazariyasini ilgari suradi.Shunday qilib, Attor “Mantiq ut-tayr”dostonini yozishda G’azzoliyning “Risolatut-tayr”asariga suyansa-da g’oyaviy-falsafiy mazmuni, obrazlar talqini, kompozitsion tuzilishi, badiiy poetik uslubi va boshqa jihatlari bilan tamomila farq qiluvchi asar yaratdi.Dostonning yuzaga kelishi Sharq xalqlari adabiyotida katta bir voqea sifatida kutib olindi va shoirga katta shuhrat keltirdi.Asar allegorik majoziy tasvir usuli orqali falsafiy masalalarni ifoda etishning epik poeziyadagi mumtoz namunalari sifatida o’zidan keyingi fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotining falsafiy-didaktik yo’nalishi taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko’rsatib, Sharq mumtoz she’riyatida yangi bir an’anani-“qush tili”bilan doston yozish an’anasini boshlab berdi.

Attor dostonining keyingi davrlar adabiyotiga ta’siri keng va murakkab bo’lib, u turli asrlarni o’z ichiga oladi.Bu ta’sirni o’zida mujassam etgan asarlar ham g’oyaviy badiiy mazmun jihatidan bir xil bo’lmay, muayyan davrlarning mahsuli sifatida o’zida o’sha zamonlarning muhim ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va axloqiy masalarini aks ettiradi. Bu holni mazkur dostondan ilhomlanib yozilgan barcha asarlar, jumladan, turk shoiri Gulshahriyning unga nazira tarzda yozgan “Mantiqut-tayr” dostonida ham ko’rishimiz mumkin. A. S. Levend Gulshahriyni “o’z zamonasidagi eng hayajonli san’atkor shoirlardan biri sifatida gavdalanadi” deya e’tirof etadi.

Gulshahriyning “Mantiqut-tayr” dostoni Attorning shu nomli asariga turkiy tilda yozilgan birinchi nazira bo’lib, kitobning xotima qismida muallif

bergan ma'lumotiga qaraganda, u shoir vafotidan sal oldinroq, ya'ni hijriy 717 milodiy 1317-yilda yozib tugallangan. Gulshahriy mazkur asarida Attor dostoniga suyanan holda qushlarning ramziy sarguzashtlari haqidagi an'anaviy syujetni bir qator yangi epizod, fikr- mulohaza va g'oyalar bilan boyitib, yangi o'ziga xos asar yozganligi ma'lum bo'ladi.

Shoir dostonidagi bosh obrazlarning tamsiliy ma'nolarini quyidagicha izohlaydi: Hudhud aql, qushlar xalq, Simurg' esa xudoning majoziy obrazlaridir. Doston kompozitsiyasida qushlarning Hudhud bilan qilgan savol-javoblari alohida o'rin egallaydi. Hudhud javoblarida tasavvuf ta'limotining asosiy tomonlari bayon etilib, ularga turli hikoyatlar ham ilova qilingan. Gulshahriy vahdati vujud nazariyasini izohlashda, asosan, ustoz Attor yo'lidan boradi. Bu holat ayniqsa qissaning xotima qismida yaqqol namoyon bo'ladi. Unda ham Simurg'ni izlab yo'lga chiqqan ko'plab qushdan faqat eng chidamli o'ttizta qushgina maqsadga erishadi. Ya'ni qushlar o'z borlig'ini tark etish oqibatida mutlaq vujud (xudo) bilan birlashib ketadilar. Ammo shoir Attor dostonidagi g'oyalarni turk tilida targ'ib qilish bilangina cheklanib qolmaydi. U o'z davrining farzandi sifatida o'zi yashab turgan jamiyat hayotida ro'y berayotgan voqea-hodisalarni, o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan ijtimoiy va axloqiy masalalarni yoritishga harakat qiladi. Dostonidagi futuvvat haqida keltirilgan ko'plab satrlar bunga misol bo'la oladi.

Futuvvatiya yoki axiylik XIII-XIV asrlarga kelib Turkiyaning ko'pchilik shaharlarida ommaviy harakat tusini oladi. Bu harakat o'zining muayyan falsafiy va sotsial dasturiga ega bo'lib, uning o'ziga xos ichki qonun-qoidolari ham bor edi. Bu qonun-qoidalarining eng asosiylari haqida Gulshahriy shunday yozadi: "Qo'li saxiy, dasturxon va darvozasi hammaga ochiq bo'lishlik, tili pok va g'iybat qilishdan xoli bo'lib, kishilar aybini ko'rganda ta'na qilmaslik" kabilarni keltirib o'tib, ularga to'liq rioya qilinsa, u futuvvat yo'lga kira oladi, degan fikrni ilgari suradi. Mazkur doston haqida tadqiqot olib borgan A. S. Levendning fikricha, asardagi futuvvat masalasiga oid fikrlar mashhur "Qobusnoma" ta'siri ostida vujudga kelgan. Bu xil o'xshashlikni to'liq ko'chirma deyish noto'g'ridir. Chunki

har bir asar muayyan davr va ijtimoiy-siyosiy sharoitning mahsuli o'laroq, o'zida o'sha muhit uchun xarakterli bo'lgan g'oyalarni aks ettiradi. Binobarin, "Mantiqut-tayr" dostonida futuvvat haqidagi fikrlarning bunchalik keng o'rin olish sabablarini ham o'sha davr hayotidan izlash lozim. Demak, mazkur dostonidagi futuvvatiyaga oid o'rinlar A.S. Levend qayd qilganidek, "Qobusnoma" ta'sirida emas, balki shoir yashagan ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga kelgandir.

Gulshahriy o'z asarida tariqat yo'lini futuvvat orqali qabul qilish lozim, degan fikrni olg'a suradiki, bu holat shoirning nazariy masalalarda Attor ta'sirida bo'lsa-da, amaliyotda undan jiddiy farq qilinishi va bu sohada o'z salafidan bir qadam olg'a ketganligini tasdiqlaydi.

Doston kompozitsiyasi an'ana bo'yicha qoliplash usuli asosida tuzilgan bo'lib, unda Gulshahriy Attorga o'xshash asosiy qissa ichida ko'plab hikoya va masallar ham keltiradi. Biroq ulardan ayrimlarigina Attor dostonidan olingan. Talantli shoir Attor asarida mavjud bo'lmagan ko'pgina yangi hikoyatlar ham yaratgan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning yaxshi bilimdoni bo'lgan. Gulshahriy bu ikki manbadan o'rinli foydalanadi. Asardagi "Dostoni Sheru Xargush" ("Sher va Quyon" dostoni) mashhur "Kalila va Dimna" ta'sirida yaratilgan bo'lsa, ayrimlari mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy", Shayx Sa'diy asarlari va Nizomiy dostonlari tarkibidagi hikoyatlaridan ilhomlanib yozilganligini A.S. Levend qayd etib o'tadi. Umuman asarda chuqur insoniy g'oyalar bilan sug'orilgan badiiy jihatdan yetuk hikoya va masallar anchagina bo'lib, ular Gulshahriyni turk adabiyotidagi mohir hikoyatnavis shoirlardan biri sifatida namoyon qiladi.

Shunday qilib, Gulshahriyning Attor asariga nazira tarzida yozilgan "Mantiqut-tayr" dostonida muallifning o'zi yashab ijod etgan davr ijtimoiy-siyosiy voqealari, tasavvuf ta'limotiga bo'lgan munosabati o'z aksini topgan. Shoir an'anaviy qissaga ijodiy yondashgan holda uni o'z davri hayoti bilan bog'lab talqin qiladi. Falsafiy masalalarda u garchand asl yo'l tutmasa-da, so'fizmning amaliy va axloqiy tomonlarini yoritishda o'ziga xos yo'l tutadi. Nazariy muammolarni hal

qilishda shoirning diniy-ilohiy qarashlari futuvvatiya harakatiga ham hayrixohlik bildiradiki, bu uning dunyoqarashi o'sha davr ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog'liqligidan dalolat beradi.

Mavlono Jaloliddin Rumiylar asarlarida ham bu jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Rumiyni uning salaf-lari- Nizomiy, Sanoiy, Attor asarlari qanchalik ilhomlantirgan bo'lsa, undan keyin yashab ijod etgan ko'pdan-ko'p Sharq shoirlari Rumiylar she'riyatidan, ayniqsa, "Masnaviy"sidan yanada kengroq ta'sirlanganlar. "Masnaviy", albatta, hikoyat yoki rivoyatlar majmuasi emas. Ammo uni tasavvufiy-diniy, falsafiy va hayotiy masalalarning badiiy tasvirlari berilgan hikoyat va rivoyatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Eron olimi A. Zarrinko'bning fikr-mulohazalariga tayanib, "Masnaviy"dagi hikoyatlarni R. Jumayev to'rt guruhga ajratadi:

1. Xalq og'zaki ijodiyotidan olingan hikoyatlar.
2. Payg'ambarlar va tasavvuf arboblari-ga bag'ishlangan hikoyatlar.
3. Yozma adabiyotdan o'zlashtirilgan hikoyatlar.
4. Ramziy - majoziy xususiyatiga ega hikoyatlar.

A. Zarrinko'b Rumiylar hikoyatlarining bosh manbai sifatida "Qur'on", "Kalila va Dimna", Sanoiy va Attor asarlari, "Jome' ul-hikoyat" va xalq og'zaki ijodiyotini ko'rsatadi. Xususan, "Lison ut-tayr"dagi bir hikoyat bevosita Rumiylarining "Masnaviy"sidan ilhomlanib yozganligi buning dalilidir.

Naql qilinishicha, "Mehtari a'zam Sulaymoni nabi" bir kun taxtda orom olib o'tirganda yoniga bir malak kelibdi. U jon oluvchi Azroil edi. Xuddi shu kuni o'limga mahkum bir kishini Sulaymon saroyida ko'rib, hayron qolgan Azroil payg'ambarga bu kishini jonini olishga kelganligini aytadi. Azroil qo'lida jon taslim qilishi kerak bo'lgan kishi buni sezib, o'lim changalidan qutulishning yagona chorasi mol-mulkni tark etib, boshqa yurtlarga qochish bo'lib tuyuladi. Shunda Sulaymon uni o'zi istagan joyga olib bor deb, shamolga aytadi va u

Hindistonga borib qoladi. Shamol to'xtab, bir lahza orom olmoqchi bo'lganda Azroil uni jonini oladi. Hikoyatdagi "shamol" ramziy mazmunni ham aks ettiradi. Shuning uchun Navoiy o'z fikrlarini:

Yel bila hamtaklik etsa gar kishi,

Ruh qabzi keldi Azroil ishi.¹²

Har kim shamoldek yelsa ham, jonini olish Azroilning ishidir, deya xulosalaydi. O'limni qayerda qanday qarshi olishi insonga bog'liq emas. Ammo uning kuni bitgan bo'lsa, har qanday holatda ham o'limdan qocha olmaydi. Aksincha, Sulaymon saroyiga kelgan kishiga o'xshab ixtiyoriy tarzda ajalga tomon chopadi. Hikoyadan kelib chiqadigan asosiy ma'no ham ana shudir. Bu hikoyat "Mantiq ut-tayr"da uchramaydi. Demak, u Navoiyning ijodiy yangiligidir. Lekin, bu ixtiro ayni paytda an'ana va izdoshlikning samarasidir. Chunki, hikoyatga asos qilib olingan g'oya va voqeaning badiiy talqinini yaratishda Navoiy Rumiyning "Masnaviy"sidagi hikoyatlaridan biriga tayangan.

Yuqoridagi mulohazalaridan Navoiy bevosita o'zining "Lison ut-tayr" dostonini yaratishda Rumiylar hazratlariga ham murojaat qilganligi anglashiladi.

Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni shoir ijodida o'ta muhim o'rin tutadi. Chunki buyuk mutasavvuf Farididdin Attorning oliy insonparvarlik, aniqrog'i, ollohpardavlik va tabiatpardavlik g'oyalarining ramziy tarannumi bo'lgan "Mantiq ut-tayr" dostonini Alisher 9-10 yoshlarida boshdan-oxirigacha yod olgandi. Navoiyning bu asarni yozishdan ko'zda tutgan bosh maqsadi Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoniga nazira yozish orqali qush tili vositasida o'zining diniy-falsafiy ta'limot sohadagi ko'p yillik ijodiy qarashlarini ma'lum tizimga solish va ularga xotima yasashdan iborat edi. Buni muallifning o'z asari haqida aytgan "Chun "Lison ut-tayr" ilhoni bila tarannum tuzubmen, qush tili

¹² Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Тошкент, 1991, 156-бет.

ishorasi bila haqiqat asrorini majoz suratida ko'rguzubmen"¹³ kabi so'zlaridan ham aniq bilib olsa bo'ladi.

Bunday buyuk falsafiy obidani turkiy adabiyotda ham ko'rish orzusida bir umr yongan Navoiy bu xizmatni o'zi, 1499-yilda "Lison ut-tayr"ni yaratib, o'rinlatdi. Navoiy bu dostonni yozishga qadar yorqin ijodiy mehnat va jasorat bilan to'la bo'lgan sharaflı yo'lni bosib o'tdi.

Buyuklarga xos kamtarlik bilan Navoiy bu doston uchun qalam charxlar ekan:

Kim bu daftarg'a berib tavfiq haq,

Tarjuma rasmi bila yozsam varaq,-

dedi. Ayni paytda Olloh muhabbati otashida o'rtangan ustozı Farididdin Attorni o'zi yoqqan o'tda yonib kul bo'ladigan Qaqnus qushiga o'xshatdi va o'zini uning farzandi deydi: Men demonkim, ul- atodur, men- o'g'ul,

Ul- shahi oliysifat ,men-banda, qul.

Navoiyning

yosh qalbini bunchalik rom etgan asar haqida "Lison ut-tayr"dagi Attor asarlari haqidagi ma'lumotdan so'ng yoziladiki:

Bir taraf borig'a oyinu sharaf,

"Mantiq ut-tayr"ig'a oyin bir taraf.

Ondakim darj etti qushlardin maqol

O'zga tildir, o'zga so'zdur, o'zga hol.

Bu

asarni yoza boshlaganida hijriy yil hisobida Alisher Navoiy oltmish yoshda edi:

Oltmishqa umr qo'yg'onda qadam,

Qush tilin sharh etgali yo'ndum qalam.

Savol tug'iladi: nega shoir bu ishga ertaroq kirishmadi? "Lison ut-tayr"ni o'qisak bunga javob topamiz. "Bu kitob nazmida o'z munosabatining

¹³ Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. Асарлар. 15 томлик. 14-том, Тошкент, 1967, 120-бет.

taqribi”sarlavhasida shoir gapni o’zining maktabdagi mashg’ulotidan boshlab, yozgan asarlarigacha hikoya qiladi:

Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yak qalam.

Mazmuni quyidagicha: Men turkiy she’riyat bayrog’ini ko’tarib, shu tilda so’zlashuvchi yurtlarni bir adabiy tilga birlashtirdim.

To’rt devon birla nazmi panj ganj,

Dast berdi chekmayin anduhu ranj

Nazmu nasrim kotibi taxminshunos

Yozsa:

yuz ming bayt etar erdi qiyos.

Munchakim nazm ichra qildim ishtig’ol

Xotirimdan chiqmas erdi bu xayol,-

Kim bu daftarga berib tavfiq haq,

Tarjuma rasmi bila yozsam varaq.

Lek so’z dushvor erdi, men notavon,

Bormas erdi homag’a ilkim ravon.

Oqibat ko’rdumki umr aylar shitob

O’lsamu qolsa deyilmay bu kitob

Ul jahon sori bu armon eltkum

Bo’yla o’tdin dog’i hirmon eltkum

Necha bu ishg’a ko’ngul mash’uf edi,

Go’iyokim vaqtig’a mavquf edi...

Demak, shoir bu asarni yozish istagini o’z ko’nglida bir umr ardoqlagan va bu ish o’ta mas’uliyatli va qiyin bo’lgani uchun orqaroq suravergan. Zotan, tasavvuf falsafasi inson aqliy kamolotining oliy darajasidan dalolat beradi.

Navoiy dostonining yaratilishida yana bir diqqatga sazovor holat bor: turkiy tilidagi barcha asarlarini Navoiy taxallusi bilan bunyod etgan shoir o'zbek tilidagi bu dostonini Foniyl taxallusi bilan ziynatladi. Hatto "Bu kitobda taxallus tag'yirining uzri" sarlavhali bob ham bo'lib, unda shunday izohlovchi baytlar tizilgan:

Chun "Lison ut-tayr" og'oz ayladim,
Turfa qushlar birla parvoz ayladim.

Munda ansab erdikim tuzg'och navo,
Bo'lsa nazming'a Navoiydin ado-

Kim navo qushlar tili alhonidur,
Dilkash afg'oni hazin dostonidur.

Turkiy uslub erdi ham bu doston,
Topqudek erdi Navoiydin nishon.

Bu raqamda Foniyl aylarga laqab
Mustame' bo'lg'ong'a ayturmen sabab

Kim bu daftar nazmidin kulli murod,
Chunki marja mayli erdiyu maod

Munda Foniyl bo'lmay ish o'lmas tamom,
Foniyl ondin topti nazmim ixtitom.

Shu o'rinda Foniyl taxallusi mazmuniga to'xtalish ham joizdir: chunki ko'pchilik bu so'zning lug'aviy ma'nosi bilan cheklanib, bebaqo, o'tkinchi, muvaqqat deb o'ylashadi. Vaholanki, shoir talqinida bu so'z ning ma'nosi behad terandir: dostonda qushlar siymosida nazarda tutilgan odamlar yetti vodiy –Talab, Ishq, Ma'rifat, Hayrat, Istig'no, Tavhid va Fano vodiylarini bosib o'tadilar va foniyl bo'ladilar: ya'ni:

Qilibon Simurg' o'ttuz qush havas,
O'zlarin ko'rdilar ul si murg'u bas.

Simurg'ni izlab chiqqan qushlar si murg' o'zlari ekanliklarini bildilar. Odamlar Ollohni izlab, yetti riyozat bosqichini bosib o'tib Fanoga yetganda o'zlarining vujudlari fano bo'lib, ruhan Olloh bilan birlashdilar : Foniyl bo'ldilar.

Foniyl Navoiy orzusi,
Foniyl Olloh oshig'ining bosib o'tajak riyozat bosqichida kamolot cho'qqisidir.

Sho'rolar davrida "Lison ut-tayr" nashr etilgan va o'rganilgan bo'lsa-da, uning falsafiy talqinidagi biryoqlamalilik va ayniqsa Fariddin Attor qarashlariga adolatsizlarcha noto'g'ri munosabat hukm surdi. Vohid Zohidov, Natan Mallayev va Olimjon Jo'rayev tadqiqotlarida Fariddin Attor dostonining falsafasi mistitizm-tarkidunyochilik, Navoiy dostoni falsafasi esa panteizm deb keskin farq ettirildi. Ayni ana shu fikrda ustoz dostoniga nisbatan adolatsizlik hukm surdi. Bu ularning aybi emas, albatta. Sho'rolar tuzumi mafkurada ham ilmda ham uslubiga "oq-qora" tarzida qarama-qarshi qo'yish amal qilib keldi: Navoiy maqtalib, Husayn Boyqaro sha'ni toptaldi; Navoiy maqtalib, ustoz Attor falsafasiga bepisand munosabat bildirildi. Vaholanki, Navoiy va Husayn Boyqaro bir-biriga jon fido qilishga shay bo'lgan tariximizning buyuk siymolari edilar... Xolbuki, Navoiy va Attor bir falsafiy qarash – tasavvuf kuychilari edilarki, shu bois o'z asarida shoir Attorni otam deya e'zozlagan edi.

Attor ham, Navoiy ham odamni goh Ollohni soyasi, goh Ollohning o'zi sifatida talqin etadilar. Ammo sho'ro olimlari haqiqatni aytishdan cho'chidilar. Zero, tasavvuf olamda Ollohdan boshqa narsa yo'q: biz ko'rib turgan narsalar Olloh jilvasi deydi. Ya'ni borliq Ollohdan iborat, jonli-jonsiz mavjudotlar Olloh nomli buyuk quyoshning zarralaridir. Axir Mavlaviy Jaloliddin Rumiychiqchasiga har birimizga boqib:

"Ilohiy – Siz! Ilohiy – Siz! Ilohiy – Siz!" deb bejiz aytmagan edilar. Ilohiy zarralar sharafini anglagan inson boshqaga nisbatan – Olloh namunasi –

zarrasiga nisbatan yomonlik qilolmaydi; yomon ko'rolmaydi; ozor berolmaydi; o'zgani Ollohni e'zozlaganday e'zozlash zaruratini anglaydi. U choq yer yuzi insonlar uchun jannatga aylanadi. Bu tasavvuf tantanasi demakdir!

Alisher Navoiy bizning kimligimizni ramziy ma'noda "Lison ut-tayr"da tanitgan, hoy, "sen Olloh namunasidan!", deya xitob qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ramziy-majoziy usul orqali, xususan, qush tili vositasida badiiy asar yozish Sharq xalqlari adabiyotida qadimiy va murakkab tarixga ega bo'lib, bu xildagi asarlarning dastlabki namunalarini xalq og'zaki ijodida ham uchratishimiz mumkin. Ammo, rasmiy tarzda yozma adabiyotda qush tili vositasida yozilgan badiiy-falsafiy asarlarning ilk namunasi Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub "Risolatut-tayr" asaridir. Mazkur asarning yaratilishi bilan bevosita Sharq xalqlari badiiy tafakkuri taraqqiyotida chuqur iz qoldirib, ularda yangi bir an'anani – qush tili orqali badiiy-falsafiy asar yozish an'anasini boshlab berdi. Davr o'tishi bilan insonlarning tajribasi ham orta boradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu asarlarning har taraflama, ham g'oyaviy jihatdan, ham mazmun jihatidan eng yuksak hamda yetuk namunasi bu albatta, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidir. Yana shuni ta'kidlash joizki, har bir asar yaratilayotgan davrning eng dolzarb muammolarini aks ettirishini inobatga olsak, G'azzoliy, Gulshahriy va Attor asarlarini ham bu tipdagi yuksak asarlar desak bo'ladi.

2-BOB

“Mantiq ut-tayr” hamda “Lison ut -tayr” asarlarining janri, kompozitsiyasi, uslubi va tilining qiyosiy tahlili.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni ulug’ mutafakkir shoirning butun ijodiy faoliyati davomida ilgari surilgan ilg’or falsafiy qarashlarni umumlashtirib, ularga yakun yasaydigan asar sifatida muallif ijodida o’ziga xos o’rin egallaydi. Chunki, Navoiyning bu asarni yozishdan ko’zda tutgan bosh maqsadi Farididdin Attorning “Mantiq ut- tayr” dostoniga nazira yozish orqali qush tili vositasida o’zining ilohiy-diniy ta’limot sohasidagi ko’pyillik ijodiy qarashlarni ma’lum tizimga solish va ularga xotima yasashdan iborat edi. Buni muallifning o’z asarlari haqida aytgan “Chun “Lison ut-tayr” ilhoni bila tarannum tuzubmen, qush tili ishorasi bila haqiqat asrorining majoz sur’atida ko’rguzub men”¹⁴ kabi so’zlaridan ham aniq bilib olsa bo’ladi. “Mantiq ut-tayr” hamda “Lison ut-tayr” tipidagi asarlarni sujet taraqqiyoti nuqtai nazaridan o’rganish, birinchidan, an’anaviy sujet umumiylikdan, xususiylikga qarab rivojlanganligini ko’rsatsa, ikkinchidan, sujetning obrazlar tizimi g’oyaviy-mazmun talabiga mos holda yangilanib va takomillashib borganligini tasdiq etadi. Qushlarning ramziy sarguzashtlarini tasvirlovchi majoziy qissa turli dunyoqarashdagi mualliflar uchun ularning ijtimoiy-falsafiy masalalarga oid qarashlarini ifoda etuvchi o’ziga xos badiiy vosita bo’lganligi tufayli sujet va obrazlar talqini ham ana shunga muvofiq tarzda o’zgargan va rivojlantirilgan. Ibn Sino, G’azzoliy, Attor, Gulshahriy va Navoiy asarlaridagi sujet va obrazlarning o’ziga xosligi ham mazkur holat bilan izohlanadi.

Navoiyning “Lison ut- tayr” dostoni kelib chiqishi jihatidan Attorning “Mantiq ut- tayr” asari bilan bevosita va Attor dostoni orqali Gulshahriy, G’azzoliy va Ibn Sino asarlari bilan bilvosita aloqaga kirishadi.

Navoiy bu dostonni yozish bilan o’zbek tilida ham fors-tojik adabiyotida bo’lgani kabi majoziy uslubda chuqur falsafiy mazmunli badiiy asar yozish mumkinligini birinchi marta amaliy jihatdan isbotladi va o’zbek adabiy tilining bu sohadagi imkoniyatlarini namoyish etdi.

¹⁴ Алишер Навоий. Мухокамат ул-луғатайн. Асарлар. Ўн беш томлик. 14-том, Тошкент, 1967, 120-бет.

“Lison ut-tayr” dostoni janr xususiyatlariga ko’ra faqat Navoiy ijodida emas, o’zbek mumtoz adabiyoti tarixida ham tamoman yangi voqea bo’ldi. Bu asarga qadar o’zbek adabiyotida falsafiy-didaktik, ishqiy-romantik, ishqiy-psihologik, ishqiy-sarguzasht va qahramonlik kabi janrlarda dostonlar yozilgan edi. “Lison ut-tayr” esa o’zbek dostonchiligining yangi janri – allegorik - falsafiy doston janrining g’oyaviy-badiiy jihatdan ilk yetuk namunasi hisoblanadi. Shu sababli mazkur asar o’zbek epik poeziyasining janr rang- barangligini taminlash va boyitishda mislsiz hissa bo’lib qo’shildi.

Xullas, Attor dostoni Navoiyga juda kuchli ta’sir ko’rsatib,shu kabi asar yozish uning bir umr orzusi bo’lib kelgan. Buyuk shoir o’zining mashhur “Xamsa”sini yozib tugatgandan keyin ham ana shu ezgu niyat bilan yashardi. E. Bertels va boshqa olimlarning tadqiqotlarida Navoiy Attor dostonini tarjima qilmoqchi bo’ladi¹⁵ deb quyidagi baytga asoslanadi:

Kim bu daftarga berib tavhiq haq,

Tarjuma rasmu bila yozsam varaq

Navoiy o’z asarini Attor dostonining tarjimasi deb atagan, degan mulohazalar bildiradilar. Bizningcha Navoiy bu o’rinda o’z dostonini “tarjima” deb atamayapti, balki Attor asarini tarjima qilmoqchi bo’lganligi haqidagi o’z ijodiy niyatini qayd etyapti. Asarning shundan keyingi o’rinlaridagi shoirning :

Lek so’z dushvor edi, men notavon,

Bormas erdi xomag’a ilkim ravon.

Oqibat ko’rdumki umr aylar shitob,

O’lsamu qolsa deyilmay bu kitob.

Oltmishqa umr qo’yg’onda qadam,

Qush tilin sharh etgali yo’ndum qalam.

¹⁵ Е. Э. Бертелс .Навоий ва Аттoр. Монография. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. – Тошкент, 2005, 75-бет.

kabi so'zlari ham shundan dalolat beradi. Ko'rinadiki, Navoiy avval Attor dostonini tarjima qilishni rejalashtirgani ammo bu ishni amalga oshira olmagan.

Nihoyat, umrining so'nggi yillarida o'zining bu niyatini o'zgartirgan va qush tilini sharhlovchi asar yozishga kirishgan. Shuningdek, Navoiy mazkur dostonning boshqa o'rinlarida uni Attor dostoniga javob-nazira ma'nosidagi "payrav" (173-bob) va "tatabbu'" (174-bob) tarzida baholaydi. Shularga asoslanib, Navoiy o'z dostonini Attor asarining "tarjima"si emas, balki unga javob-nazira tarzida yozilgan o'ziga xos asar deb hisoblash mumkin.

Attorning Garsen Do' Tassi nashrga tayyorlagan "Mantiq ut-tayr" dostoni kirish, yigirma to'rt maqola va xulosadan iborat. Bu nisbatan yirik bo'limlar, o'z navbatida, hikoyat deb ataluvchi qator mayda fasllarga ham bo'linadi. Biroq buni dastlabki bo'linish deb hisoblash qiyin, negaki, Sharq qadimgi qo'lyozma va toshbasmalarining katta qismi bunday bo'linishni bilmaydi va odatda, nisbatan yirik bo'laklarga birlashmaydigan kichik boblarni o'z ichiga oladi.

"Lison ut-tayr" 3598 baytni o'z ichiga oluvchi 193 bobdan tashkil topgan bo'lib, hajm jihatdan shoir dostonlari orasida eng kichigi hisoblansa-da, murakkab kompozitsion tuzilishga ega. Dostonni kompozitsion tuzilish an'anaviy muqaddima (X-XIII boblar), asosiy qism (XVI-CLXXI boblar) va xotima (CLXXII-CXCIII boblar) kabi bo'laklarga ajratish mumkin.

Umumiy muqaddima ham o'z navbatida hamd, munojot, Muhammad Payg'ambar va uning choryorlariga bag'ishlangan na'tlar, Abu Bakr Siddiq, Umari Foruq, Usmon Zunnurayn, hazrati Aliga bag'ishlovlar kabi tadrijiy qism va asosiy qissaga prolog vazifasini o'tovchi Farididdin Attor va uning "Mantiq ut-tayr" dostoniga bag'ishlangan qismlarga bo'linadi.

Dostonning asosiy qismi hikoya ichida hikoya usulida yozilgan bo'lib, u qushlarning Simurg' tomon qilgan safarini tasvirlovchi qoliplovchi qissa va undagi ayrim epizodlarga ilova tarzida keltirilgan qirqdan ortiq hikoya, masal va latifalarni o'z ichiga oladi.

Asarning xotima qismi tariqatdagi yetti bosqichga bag'ishlangan munojotlar, shoirning o'z asariga bo'lgan munosabati, asarda qo'llanilgan taxallus masalasi, Sulton Husaynga madhiya va asar ta'rixiga oid boblardan iboratdir.

Doston qoliplovchi qissasi o'ziga xos kompozitsion xususiyatga ega bo'lib, u asardagi bosh g'oyaviy mazmunni ifoda etishga xizmat qiladi. Undagi turli qismlarning asosiy mavzu va bosh g'oyaga nisbatan maqsadga muvofiq tarzda

joylashtirilishi asar kompozitsion tuzilishini belgilaydi. Qoliplovchi qissaning o'z sujeti, g'oyaviy mazmuni va shularga muvofiq keluvchi kompozitsion qurilishi mavjud. Shuningdek, undagi ayrim epizodlarga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlarning ham o'z sujeti, g'oya kompozitsiyalari bor. Shunga binoan ular o'ziga xos mustaqil asarlar ham sanaladi. Lekin ular asosiy qissaning mavzusi jihatdan bosh kompozitsion yo'nalishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ularni dostonidan chiqarib tashlash mumkin emas, aks holda asarning g'oyaviy mazmuniga jiddiy putur yetadi.

Shoirning oltinchi dostonida qo'llanilgan bu usul ko'proq uning "Hayrat ul-abror" va "Saddi Iskandariy" dostonlaridagi kompozitsion usullarni eslatadi. Jumladan, har uchala dostonida ham shoir hikoyatlarni ulardan avvalgi bobda bayon qilingan fikr-mulohaza, voqea va nazariy tezislarga isbot-dalil yoki ilova sifatida keltirganki, bu jihatdan ular bir umumiy tamoyilga ega. Umuman, "Xamsa"da shoir dostonchiligidagi kompozitsion holatlarning sintezlashuv hodisasi mavjud bo'lib, bu narsa "Lison ut-tayr" asarida kompozitsion usullarni o'ziga xos umumlashtirganidan dalolat beradi.

Birinchi parcha Attorda ham, Navoiyda ham maxsus sarlavhaga ega emas va ollohga hamdlardan iborat: dunyo yaratilishining tasavvufiy konsepsiyasi, Odam Ota tarixi, Shaytonning quvilishi va Odam Otaning jannat haydalishi umumiy tarzda bayon qilinadi. Navoiy asliyatga umumiy tarzda yondashadi. Masalan:

Onki jon baxshid masti xakro. ("Mantiq ut-tayr")

Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,

Tengri hamdi birla og'oz aylagay. ("Lison ut-tayr")

Attorning uslubi juda o'tli, she'rlari dami qaytgan hayqiriqlar bilan to'lgan, hikoya bayoni doimo munojot – Xudoga qaratilgan otashin iltijolar bilan bezalgandir. Dunyoning yaratilish tarixi Attorda batafsilroq bayon qilingan, Navoiy esa Shaytonning quvilishiga ko'proq o'rin ajratadi. Biroq Attor obrazi Navoiy fikrlari rivojiga hamisha turtki bo'lib turadi. Shu bilan birga, Navoiy yaratgan obraz, quyidagi baytdan ko'rinib turganidek, badiiy yuksaklik darajasiga ko'tarilgan:

Ko'hro mixi zamin kardas naxo'st,

Paye zaminro ro'yi az daryo beshust. ("Mantiq ut-tayr")

Bahr uza jo'ng ayladi tufrog'din,

Jo'ng uchun langar yosodi tog'din. (“Lison ut-tayr”)

Navoiy obrazlarni ancha kengaytirganligini quyidagi baytlarda ko'rishimiz mumkin:

Ganj dar qahr astu chun tilsim,

Beshikanad oxir tilsim ba'un jism. (“Mantiq ut-tayr”)

Rozi maxfi ganj o'lub bu turfa jism,

Sun'idin o'l ganj hifzig'a tilsim.

Ham tilsim ul maxzan uzra, ham amin,

Ofarin sun'ungg'a, ey jon, ofarin. (“Lison ut-tayr”)

Lison ut-tayrning III-XII boblarida an'anaga ko'ra, Muhammad payg'ambar va dastlabki to'rt xalifa madh etilgan. Me'roj voqeasiga oid to'rtinchi bobning o'ziga xos tomoni shuki, unda shoir payg'ambarning Buroq nomli afsonaviy otda koinot orqali xudo dargohiga ko'tarilish jarayonini alohida yo'sinda, o'sha davr astronomiyasi, ayniqsa Samarqanddagi Ulug'bek maktabi erishgan ulkan yutuqlardan samarali foydalangan holda tasvir etadi. Bunday holatda E.Bertels qayd qilganidek, Attor kuzatilmaydi.

Navoiy dostonning asosiy qismini boshlashdan oldin ustoz Farididdin Attor madhiyasiga maxsus bob ajratadi va uning ijodiy faoliyatiga

Har ne gardun bahr ila konida bor,

Oncha yuz Attor do'konida bor¹⁶

deya yuksak baho beradi. Navoiy Attor ijodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra “vahdat sirlari” ni sharhlashga bag'ishlangan ekanini qayd qilish bilan birga, uning mashhur asarlari sirasiga “Musibatnoma”, “Ilohiynoma”, “Ushturnoma”, qasida, g'azal, va ruboiylardan tartib berilgan “Devon” va “Tazkirat ul-avliyo” kabilarni sanab o'tadi. Ammo shoir fikricha, mazkur asarlarning barchasi Attor ijodining

¹⁶ Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. 12-бет.

muhim bir tomonini tashkil etib, qanchalik katta sharaf va maqtovg'a sazovor bo'lsa, yolg'iz "Mantiq ut-tayr" dostonining o'zi shunchalik maqto'v va sharafga loyiqdir. "Lekin Shayx ruhi madadi bilan men ham qush tili vositasida asar yozishga kirishmoqchiman" der ekan Navoiy, Attor dostonining o'z asari yuzaga kelishida muhim bir turtki bo'lib xizmat qilganini ta'kidlaydi.

Attor dostonining navbatdagi to'rt bobi- birinchi to'rt xalifa ta'rifini Navoiyda ham ko'ramiz, faqat bir farqli tomon bilan: har bir ta'rifdan keyin uncha katta bo'lmagan hikoyat keladi. Mavzu xalifalarning tarjimai hollaridan olingan va uning vazifasi ta'riflanayotgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ziynatlab ko'rsatishdan iborat. Shunday qilib, Navoiyning mazmun bayoni aniq xulosalar beradi, Attorni esa shakliy jihatlariga e'tiborini qaratgan. Masalan:

Xojai avvalki avval yori o'st,

Soni isnoti az xuna filg'ari o'st.

Xojai shar'i oftob jam'i din,

Zilli Haq foriqi a'zam Sham'idin.

Xojai sunnatki nuri mutlaq ast,

Bal xuzovand du nur barhaq ast. . ("Mantiq ut-tayr")

Ulki sultoni rasulg'a yordur,

Soni istaganiz huna filg'ordur.

Ulki payg'ambarg'a hamdam erdi ul,

Shubhasiz, foriqi a'zam erdi ul.

U hayo koni nurul aynl edi,

Aylakim aynayni zi nurayn edi. ("Lison ut-tayr")

Alining vasfi (10-bob) Navoiyda Attornikidan birmuncha farq qiladi. Kiritma boblarda Navoiy quyidagi mavzularni qo'llaydi: 5-bob. Abu Bakr zakotni man qilishni talab qilgan musulmonlarga qarata shariatdagi "bir ishni" ham o'zgartirolmasligini aytadi. 7-bob. Madina talon-taroj qilingandan keyin Umar o'ljadan o'ziga hech narsa olmaydi va barcha ulushlarini bayt al-molga beradi. 9-bob. Odamlar kelishganda, payg'ambar oyoqlarini uzatib o'tirar, biroq Umar kelganda esa uning nafsoniyatga tegmaslik uchun oyoqlarini yig'ishtirib olardi. 11-bob. Dushman nayzasining uchi Alining suyagiga kirib qoladi va yaqinlari uning dardini kuchaytirmasdan, qanday chiqarib olishni bilmaydilar. Payg'ambar bu ishni Ali ibodatga berilgan paytda qilishni maslahat beradi, chunki namoz paytida u tashqi dunyoni shu darajada unutadiki, hatto, og'riqni ham sezmaydi. Payg'ambarni aytganini qiladilar. Bundan xabar topgan Ali xulosa qiladi:

Kim xalos o'lmoq ajal paykonidin,

Mumkin ermas juz nabi ehsonidin.

Birinchi xalifalar ta'rifidan keyin Navoiy Attor madhiga o'tadi (12-bob), o'z niyatini amalga oshishida uning ruhidan madad so'raydi. Attor dostonining shu yerida esa shialar va sunniylar o'rtasidagi dushmanlik haqidagi juda muhim bir bob bor. Bunda Attor hijriy IV-Vasrlar fors so'fiylari o'rtasida odat tusiga aylangan yarshtiruvchilik nuqtasida turadi. Bir tomondan, u shialarni Umarga nisbatan adolatli bo'lishga chaqirsa, ikkinchi tomondan, so'fiylarga Ali o'z salaflariga dushmanlik kayfiyatida bo'lmaganini, binobarin, jamoat adovatni to'xtatishi kerakligini tushuntiradi. Ushbu o'rinlar juda mayda-chuyda tafsilotlar bilan bezatilgan. Tabiiyki, Navoiy ularni tushirib qoldirgan. Shu yerga kelganda, har ikkala shoirda ham kirish qismi tugaydi va hikoya boshlanadi.

Demak, an'anaviy muqaddimaning so'nggi bobi o'z mazmuni e'tibori bilan asosiy qissaning prologi vazifasini o'taydi. Shuningdek, asosiy qism mazkur bob orqali muqaddima bilan ma'lum mantiqiy bog'lanishga ega bo'lib, bu bilan Navoiy an'anaviy muqaddima va asosiy qismlar o'rtasidagi kompozitsion aloqani mustahkamlaydi.

Shunday qilib, doston muqaddimasi an'anaviy xarakterga ega bo'lishiga qaramay, ulug' mutafakkir shoir qalami ostida o'ziga xos mazmun va badiiylik kasb etgan. Unda muallifning ba'zi muhim falsafiy qarashlari, shaxsiy hayoti va oxirgi dostoni yozilishiga doir muxtasar ma'lumotlar o'z aksini topganki, shu jihatlari bilan u katta ahamiyatga sazovordir.

Kirishni tugatgach, Attor darhol voqea bayoniga o'tadi va bizni ehtirosli murojaatlar vositasida doston qahramonlari bilan tanishtiradi. Ko'z oldimizda har xil qushlarning o'n ikki tavsif o'tadi, shoir ularning har biriga beshtadan bayt bag'ishlaydi. Keyin Hudhudning qushlarga qilgan dasturiy nutqi keladi. Unda Hudhud o'z xizmatlarini sanab o'tadi va Simurg'ni izlash lozimligini ta'kidlaydi. Voqea joyi manzarasi chizilmaydi, qushlarning nima sababdan yig'ilgani ham noma'lum. Attorda bu joylar lirik xarakterda tasvirlangan.

Navoiy o'z vazifasiga mutlaqo boshqacha yondashadi. Mana u qushlar yig'ilishi va undan keyingi voqealarni qanday tasvirlaydi (13-bob):

Jam o'lub bir kun guliston qushlari,
Beshau bahru biyobon qushlari.
Borcha bir manzilda majma' tuzdilar,
Har bir o'z xaylu sayin ko'rguzdilar.
Kim muhabbat birla tuzgaylar navo,
Chun tugonsa bazm, tutqoylar havo.
O'ltururda chunki oyin yo'q edi,
Har birining o'rni ta'yin yo'q edi.
Yuqori o'lturdi to'tidin kalog'
Bulbulu qumridin ul yanglig' zog'.
Xod sung'urdin biyik tutti maqom,
Yo'rtachi tovus uza qildi xirom.
Chun hunarvar uzra chiqdi behunar,
Tozdin qoldi quyiroq tojvar.
Xayli ashrof ettilar zohir nizo,
Qilmadi ul so'zga arzol istimo.
Tushti qushlar ichra g'avg'o har taraf,
Mojarro birla muhako har taraf.
Bir-biridin o'tmadi ul mojarro,

Har dam oshdi mojaro ul hayl aro.

Bu manzara bizni Attorning mavhum obrazlariga qaraganda, mutlaqo boshqa tafakkur olamiga olib kiradi. Navoiy ramziy hikoyaga ma'lum realistik talablar bilan yondashadi. Qushlarning harakatlari asoslanishi kerak – shoir nasl-nasabga qarab, martabali bo'lishning juda o'rinli sababini topadi va to'ralarning, ehtimol, o'zi ko'p marta kuzatgan, o'zaro talashish voqeasini tasvirlaydi.

Navoiy dostonining 14-18-boblari Hudhudning qushlar bilan Simurg' haqidagi suhbatiga va uni topish bilan bog'liq savol izohlariga bag'ishlangan. Birinchi uch bob Attorning tegishli bir parchasi mazmunini beradi, chunki forsiy asliyatdan farqli o'laroq, Navoiy qushlarni g'alati shoh va uning xususiyatlari haqida ikki martadan savol berishga majburlaydi. Hudhud Simurg'ni tasvirlash mumkin emasligini aytadi. U haqda faqat shuni aytish mumkinki, uning zoti bitta, sifatlari ko'p, deydi:

Oni a'zongizda qon yanglig' biling,

Jism ihyosida jon yanglig' biling.

“Mantiq ut-tayr” da hudhud qushlarga dunyo Simurg'ning mavjudligini qayerdan bilib olganligini tushuntiradi. Kechasi Xitoy ustidan uchib o'tayotganda uning bir pati uzilib yerga tushadi va o'z shu'lasini bilan butun mamlakatni yoritadi. Bu bob Attorda juda qisqa bo'lsa, Navoiy uni batafsil bayon qiladi va shu asosda Xitoy ham ta'riflab o'tadi. Biroq bu ta'rif mustahkam real asosga ega emas va batamom fors poeziyasi yaratgan adabiy an'anaga tayanadi. Masalan, Semurg' patidan Xitoy “Moniy ustaxonasi”ga o'xshab qoladi. Moniy esa musulmon mualliflarining odatdagi qarashlariga ko'ra, yetuk musavvirdir.

18-bobda qushlar jo'nashga qaror qiladilar va Hudhuddan o'zlariga yo'l boshlovchi bo'lishni so'raydilar. Safarning qisqacha umumiy tavsifini bergandan keyin Hudhud 19-bobda quyidagi tartibda sanab o'tilgan qushlarga maslahat so'rab murojaat qiladi:

1)musicha; 2)tovus; 3)bulbul; 4)qumri; 5)kaklik;6)tazarv; 7)durroj; 8)kabutar;9)shohboz; 10)shunqor. Bu ro'yxat, umuman olganda, Attorda hikoyani boshlab bergan ro'yxatga mos va, shubhasiz, dostonda tegishli ko'rinish istagi natijasida paydo bo'lgan. Tan olish kerakki, bu murojaatning kiritilishi real voqelik nuqtai nazaridan juda o'rinli. Bu yerda u voqea mantig'iga to'g'ri keladi va dostonning epik bayonini buzmaydi. Xolbuki, Attorda u dostonga individuallik olib kiruvchi va bu bilan konsepsiyaning yaxlitligini izdan chiqaruvchi lirik chekinish tarzida berilgan.

20-bobda qushlarning Hudhud nutqi ta'sirida tuygan xursandligi tasvirlangan. Ular sabrsizlik va jo'shqinlik bilan yo'lga tashlanadilar. Keyin bu safar dastlabki kunlarining juda muxtasar bayoni keladi. Asta-sekin qushlarning g'ayrati so'nadi, endi ular vatanlari, o'ylarining saranjom-sarishtaligini eslay boshlaydilar, qalblarida shubha paydo bo'ladi va shu tarzda ular birin-ketin Hudhudning oldiga kelib, xastaliklaridan shikoyat qiladilar, dam berishni so'raydilar va turli bahonalar bilan safardan qochib qolishga harakat qiladilar.

Shunda Hudhud qushlarni bir vodiya to'playdi va ulardan yo'lni davom ettirishga monelik qilayotgan sabablarga izoh talab qiladi. Shunday qilib, dostonning asosiy qismi-ayrim qushlarning yalinib-yolvorishlari va Hudhudning e'tirozlari boshlanadi.

Keyingi qismda ikkala shoir ham mavzuning aynan bir xil tartibi va joylashishiga amal qiladi: har bir qushga uch parcha – uning yalinib-yolvorishi, Hudhudning javobi va javobga bezak, ya'ni Hudhudning fikrini izohlovchi kichik bir hikoyat to'g'ri keladi. Biroq qushlarni sanab o'tish tartibi Navoiyda biroz boshqacha va, bundan tashqari, uning ro'yxatida, hatto, Attorning dostonida uchramaydigan qushlar ham bor. Bundan tashqari, har bir bo'lim yakunlangandan so'ng keltirilgan ko'pgina hikoyatlar ham Navoiy ijodining nihoyatda serjiloligidan dalolat beradi. Bu hikoyatlarning mavzusiga ko'ra, boshqa adabiy asarlarga borib taqaladiganlari ham bor; ba'zi o'rinlarda esa, ularning manbaini ham ko'rsatish mumkin. Boshqalari hayotdan olingan sanachalar yoki Navoiyning davlat arbobi sifatida, ehtimol, kuzatgan holatlaridir .

Shunday qilib, Attordagi o'nta qushdan Navoiy faqat sakkiztasini saqlab qolgan, ikkitasini –qo'ton va qarg'ani tushirib qoldirgan. Bularning o'rniga Navoiy qumri, kabutar, tustovuq, qirg'iy va xo'rozni kiritgan. Qoshimcha qilinganlardan qumri, kabutar, tustovuq, burgut va xo'roz adabiy an'ana ifodasi sifatida e'tirof etilishi mumkin, chunki ular fors poeziyasida ko'p uchraydi. Qirg'iy va burgut Navoiyning qo'shimchasi, chunki buramzlar an'anaviy she'riyatda uchramaydi. Bundan tashqari, fors tilida, hatto, shu qushlarni ifodalovchi so'zlarning o'zi ham yo'q. Ular, odatda, turkiycha nomlar bilan ataladi.

Qiyin ahvolda qolgan qushlar to'dasiHudhuddan o'zlarining Simurg'ga munosabatini tushuntirib berishni so'raydi (62-bob). Hudhud ularni qiynagan savolga javob beradi (63-bob). Attor bu bobda davr so'fiylarining asosiy ta'limotidan so'zlaydi: yerga qo'ngan qushlar Simurg'ning soyasigina, xolos. Navoiy ham shunga yaqin narsani keltiradi, biroq u o'z fikrini boshqacharoq tarzda bayon qiladi. Faqatgina bir satri Attornikiga o'xshaydi:

Ey nodon, shuni bilginki, qushlar

Shakli boshdan oyoq uning shaklidir.

Simurg'da esa boqiylik bor. Unga yetgan kishi masti-mustag'riq bo'lib, haqiqatga yetishadi. Biroq haqiqatga yetishishning o'zi bo'lmaydi, chunki buyo'lda qancha qiyinchiliklar va to'siqlarni yengib o'tish zarurdir.

64-bobda oldingi bobni izohlovchi hikoyat keltirilgan. Unda bir sohibjamol shoh haqida gapiriladiki, uning yuzini ko'rgan kishi o'sha zahotiyoq o'lar ekan. Biroq buni hamma bilsa-da, unga intizor bo'lgan va uni ko'rishga oshiqqan. O'sha shoh ulkan oynavand qasr qurishni buyuradi. Qasr qurilgach, u minoraga chiqib, o'zini oynaga solarkan. Qasrni o'rab olgan kishilar uning oynadagi aksidan zavqlanar ekanlar.

Bu hikoyat Attorning tegishli bobini (1070-1102 bb) juda aniq beradi, faqat bitta farq bilan: Navoiyda bu ramziy hikoyatning so'ngida o'ziga xos qisqa sharh keladi:

Qasri tan onda ko'ngulni ko'zgu bil,

Ko'zguda shah husnini nazzora qil.

Bermayin bu ko'zguga avval jilo,

Aks anda solmag'ay ul podshoh.

65-bobda Makedoniyalik Iskandar haqidagi latifa Attorning tegishli hikoyatiga mos ravishda keltiriladi(1103-1109 bb). Attordagi Mahmud G'aznaviy va uning mahrami haqidagi hikoyat (1110- va keyingi b.) esa Navoiyda uchramaydi.

O'zlarining Simurg'ga bo'lgan munosabatini aniqlagach, qushlar unga qanday yetish mumkin, qaysi yo'l unga olib boradi, degan savollar beradi. Navoiyning bu bobi (66-bob) Attor dostonining 14-bo'limiga mos keladi. Hudhud bu yo'lda, eng avvalo, nafs xohishlaridan voz kechish, shaxsiy hayotdan bosh tortish va sendan nimani talab qilishmasin, barchasini itoat bilan bajarish lozimligini tushuntiradi. Bunga misol tariqasida Shayx San'on va go'zal nasroniy qiz haqidagi qissa xarakteridagi bir hikoyat keltiriladi(67-bob).

Attorda bu hikoyat markaziy o'rin egallaydi va u shubhasiz, dostonning eng yorqin va eng chiroyli qismidir. Mazkur hikoyat, garchi voqea-hodisaning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, tamomila alohida bir qissani tashkil qiladi. Sa'non haqidagi qissa o'zining go'zal badiiy shakli bilan birga, katta

tasavvufiy ahamiyatga ham molik. Bu tasavvufning asosiy g'oyasi –individual “men”ning samoviy “men”ga qorishib ketishining qisqacha bayonidir. Shuning uchun bu qismning Navoiyda ham to'liqligicha olinganligiga hayratlanmasa ham bo'ladi. Ammo bu yerda ham tom ma'nodagi tarjima yo'q. Navoiy Attorda uchramaydigan ko'plab tafsilotlarni keltiradi. Xususan, dayr (dunyo) tasvirini beradi hamda shayxning islomdan qaytish tantanali marosimini yorqin ifodalaydi:

Dayr ichin firdavs oyin qildilar,
Ko'p takalluf birla tazyin qildilar.
To'rida taxt urdilar gardun asos,
Zebu ziynat onda behaddu, qiyos.
Sho'x tarso chiqti onda shavqnok,
Shayx oni ko'rgach bo'lub hardam halok.
Shayxni kelturdilar majma'aro,
Qilg'ali iymoni ruxsorin qaro.
Bir-biri uzra o'kuldi dayr eli,
Xoh iqomat xayli, xohi sayr eli.
Boda ko'p-ko'p onda hozir qildilar,
Nuql ko'p-ko'p dog'i zohir qildilar.
Savti noqusu navoyi arg'unun
Shayx dini motamig'a tortib un,
Bo'ldi sokin har tarafdin bir kashish,
Kim bu nav' o'lmaydur erdi hargiz ish.
Shu'la kelturdilar otashgohdin ,
Mus'haf istab murshidi ogohdin.
Chun muhayyo bo'ldi zunnoru salib,
Qo'pti yuz afsun bila ul dildirib.
Taxtdin tushti tuman ming noz ila,

Keldi Shayx o'llig'a yuz e'zoz ila.

O'lturub bir gabraki jom etti no'sh,

Kim ko'rub Shayx etti tarki aqlu xush.

Navoiy yaratgan manzara, garchi juda yorqin tasvirlangan bo'lsa-da, butunlay musulmon adabiyotining nasroniy dayr haqidagi an'anaviy tasavvuriga asoslangan. Biz bu yerda nasroniy va otashparastlik dinlarining "oashgoh ", "verb"(pasxadan oldingi shanba va yakshanbada o'tkaziladigan sayr tomosha) qadaq kabi atamalarning aralashib ketganligini ko'ramiz.

Navoiy bu hikoyatda ham Attorning fikrini rivojlantirib, Shayx kunduzlari cho'chqa boqqani, kechalari otashgohlarda o't qalagani haqida yozadi. Navoiy mavzuni adabiy an'anaga muvofiq tarzda yoritsa ham Attorda yaratilgan obrazlarni yangi tafsilotlar bilan to'ldiradi.

Hudhudning hikoyati qushlarga o'zgacha qat'iyat bag'ishlaydi. Ular uzoq yo'lga o'tlanadilar. Biroq galaga yo'l boshchi kerak, chunki usiz bu olis yo'lni bosib o'tish qiyin. Ular qur'a tashlaydilar va u Hudhudga nasib etadi. Navoiy bu qismni (68-bob) ham ayrim mantiqiy detallar bilan boyitgan. Qushlar Hudhudning bilim va qobiliyatlariga allaqachon ishonch hosil qilganlar va shu bois unga yo'l boshchi bo'lish taklifi bilan chiqadilar. Biroq Hudhud bu taklifni rad etadi – u "Xudo" ijozatini kutadi va uning ko'rsatmasisiz bunday majburiyatni o'z zimmasiga olishdan qo'rqadi.

Safarning qushlar uchun eng og'ir qismi boshlanadi: qushlar oldida giyoh ham bitmaydigan bepoyon sahro namoyon bo'ladi (69-bob). Bu ularni vahimaga soladi va qushlardan biri Hudhuddan bunday sahrolanish sababini so'raydi. Hudhud sahro – ulug' shoh saroyining boshlanishi, uning buyukligi saroyni sirli halqa bilan o'rab olgan deya javob beradi. So'zining isboti uchun Boyazid Bistomiy va uning cho'lu biyobonda tungi adashishi haqidagi go'zal bir afsonani so'zlab beradi (70-bob). Bu yerda Navoiy va Attorda o'xshashliklar kuzatiladi.

Oldilarida turgan maqsadning ulug'vorligidan ruhi tushgan qushlar Hudhuddan yo'lni davom ettirishdan avval o'zlariga kerakli maslahatlar berishni so'raydi (71-bob). Ular bu jarayonni shunday tartibda o'tkazishga qaror qiladilar : boshiga toj kiyib olgan Hudhud minbarga chiqadi va kimda savol bo'lsa, unga murojaat etadi.

Shunday qilib, bu qism avvalgi vaj-karsonlarga qarshi tarzda keltiriladi. Boblar uch guruhga bo'linadi: qushlarning savoli, Hudhudning javobi va bildirilgan fikrni dalillovchi hikoyat. Attor shu qismni birmuncha erkin tuzgan. Unda hikoyatlar miqdori har xil: ular deyarli bir o'rinda ham ikkitadan kam emas, ba'zan yettitagacha yetadi. Bu yerda Navoiy va Attor keltirgan savol-javoblarda o'xshashliklar kuzatiladi. Hikoyatlarda esa mavzu jihatdan, hajm jihatdan farqlar kuzatiladi. Agar birinchi qismda mavzular, asosan, hayotdan olingan bo'lsa, bu yerda biz mashhur shayxlar tarjimai hollaridan olingan afsonalarni ko'ramiz. Bu yana Navoiy mavzuni naqadar izchil taqsimlaganini ko'rsatadi. Birinchi qismda kundalik turmushdagi tashvishlar bilan umri o'tayotgan shaxslarning siymosi chizilgan; bu yerda "yo'l" ga kirgan kishilar haqida gap boradi va shuning uchun dalillar ham u yoki bu valiyga so'ngi maqsadga erishish imkonini bergan so'fiylar so'zlari asosida keltirilishi kerak edi.

Hudhudga berilgan birinchi savol (72-74-boblar) uning boshqa qushlarga nisbatan afzalligi nimada ekanligi va nega unga bunday ehtirom munosib ko'rilganligi haqida bo'ldi. Javob: unga Sulaymonning nigohi tushgan va shu sababli tezda oliy darajaga yetgan. Izoh uchun shayx Najmiddin Kubro haqidagi hikoyat keltirilgan (74-bob). Bir kuni uning nigohi itga tushgan ekan, it o'sha ondayoq avliyolik darajasiga yetibdi. Attorda bu hikoyat yo'q. Demak, bu Navoiyning yangiliklaridandir.

Ikkinchi savol (75-77-boblar) jism zaif bo'lsa, va "yo'l" ning qattiq sinovlariga bardosh berolmasa, nima qilish kerakligi haqida bayon etilgan. Hudhud o'z navbatida bu dunyoning haqiqiy emasligi, binobarin, o'lim va undan uzoqlashish bu foniylar dunyoda yashashdan afzal ekanligi haqida gapiradi. Misol tariqasida u shayx Abu Said Meyhan tunlari o'z andomini (badanini) o'ldirgani va boshi bilan quduqqa osilgan holda Qur'on o'qigani haqidagi afsona keltiriladi (77-bob). Navoiy bu hikoyatni Attorning Tazkirat ul-avliyo kitobidan olganligi ko'zga tashlanadi.

Uchinchi savol (78-80-boblar) gunohlar bilan to'lib tushgan odamning nima qilishi lozimligi va ularning gunohlari "yo'l"ida to'siq bo'lib uchrashligiga ishora qilinadi. Bu savolga javoban Hudhud gunohlardan xalos etuvchivosita tavba ekanligi xususida gapiradi va o'z fikrining isboti uchun ulug' gunohiga qaramasdan, payg'ambarlik nisbasidan mahrum bo'lmagan, aksincha, samimiy tavbasi bois Allohning e'tiboriga tushgan Odam haqidagi hikoyatni keltiradi.

To'rtinchi savol (81-83-boblar) so'rovchi fikrlarining doimo o'zgarib turishiga sabab bo'lgan beqarorlikka qarshi qanday kurashmoqlik lozimligi haqida. Hudhud o'z javobida bu sifat barcha maxluqlarga xos ekanligini, "yo'l" aynan shu

yaramas sifatlardan qutulish ekanligini aytadi. Bunga misol qilib, shayx Abu Turob Naxshabiy haqidagi hikoyatni keltiradi (83-bob). Uning faqat o'z qiyofasini o'ylaydigan bir muridi bor edi. Shayx uni qushxonaga jo'natadi va yangi so'yilgan mol ichak chavoqlari va kalla-pochalari solingan savatni boshida tashishga majbur qiladi. Muridning kiyimi kir va qonga belanadi va oxir oqibat u "yo'l" uchun tashqi tozalik uncha ham muhim emasligini tushunadi. Bu hikoyat Abu Turob va Jomiy hikoyatlariga hamohang bo'lganligi bilan ular ijodida uchramaydi. Demak, bu ham Navoiyning ijodiy yangiliklaridan biridir.

Beshinchi savol (84-86-boblar) qalb itoatli bo'lmasa va aql amriga bo'ysunmasa, nima qilmoqlik kerakligi haqida. Hudhud ko'ngul havaslari bilan kurashish lozimligini ta'kidlaydi hamda so'zining isboti uchun shoh va darvesh hikoyatini keltiradi. Darvesh o'sha shoh eshak kabi nafsining izmida ekanligini isbotlaydi. Bu hikoyat Attorda ham uchraydi.

Oltinchi savol (87-89-boblar). Shayton musulmonni yo'ldan uradi, o'ziga tobe qiladi: modomiki, inson o'z xohishining quli ekan, Shayton unga o'z ta'sirini o'tkazaveradi va har bir qoniqtirilgan istakdan yana yuzlab shaytonlar tug'ilaveradi. Bu fikrning isboti uchun shayx Abu Hasan Haraqoniy haqidagi hikoyat keltiriladi (89-bob). Bir kuni murid uning oldiga kelib, Shaytonning makrlaridan shikoyat qiladi. Haraqoniy shaytonning o'zi oldiga kelganini va o'sha murid dunyo moliga ochko'zligi tufayli unga shaytonga hech narsa qoldirilmaganidan zorlanadi. Bu hikoyat Navoiyda Attordan quyidagi farqli jihatlar bilan ajralib turadi: Attorda shayxning ismi keltirilmagan. Haraqoniy haqidagi bu hikoyatni boshqa shoir-u, ijodkorlarda uchratmaganligini, sharqshunos olim Bertels shaxsan qayd etib o'tadi: "Ehtimol, Navoiy Attorning qissasiga mashhur shayxning ismini kiritgan".

Yettinchi savol (90-92-boblar) oltin va boylikka ruju qo'yganda nima qilmoqlik lozimligi haqida. Hudhud savol bergan qushni tashqi shaklga berilganlikda va ichki ma'noni unutganlikda ayblaydi. U pul to'plab, doimo bo'yniga osib yurgan bog'dodlik bir ahmoq haqidagi hikoyatni so'zlab beradi. Bir kuni o'sha ahmoq daryoda cho'milmoqchi bo'lib, suvga engashganda, bo'ynidagi og'ir yuk uni suvga tortib ketadi va natijada g'arq bo'ladi. Bunday hikoyatni Attorda uchratmaymiz. Bu ham Navoiyning ijodiy yangiliklaridan birinitashkil etadi.

Sakkizinchi savol (93-95-boblar). Savol bilan murojaat qilayotgan qush jannatmonand bir joyda yashaydi, shuning uchun undan ajralib qolishni istamaydi. Hudhud tashqi olamning butun go'zalligi yolg'on deydi. Bu ikki asarlarda dabdabali qasr hammomning iflos o'txonasini eslatadi. Isbot uchun

shunday hikoyat keltiriladiki (95-bob), go'zal badiiy shakli nihoyatda ta'sirli chiqqan. Hikoyatning qisqacha mazmuni quyidagicha: bir qalandar kishi bor edi, uning tongdan shomgacha yeydigan ovqati ichkilik edi, faqat uning xayoli ham, hayoti ham aysh-ishratdan iborat edi. Bir kuni uning go'shasida chayon chaqib oladi. Zahri tanasiga tarqalib ajaldan xabar berayotgan edi. Shunda u hayotida biror yaxshi ish qilmaganligini o'ylab battar siqildi. Bu hikoyatning asosiy g'oyasi yangi emas, undan fors shoirlari ko'proq foydalanganlar. Masalan, Go'lahiyning hammomda uyg'onish sahnasi Rumiyning qasidasidan birida uchraydi. Shunga o'xshab ketadigan sahnani Nizomiyning "Haft anggor" asarida ham ko'rishimiz mumkin.

Navoiy dostonida bu g'oyaning o'ziga xos xususiyati uning jonliligi, samimiyligi, yoqimliligi va iliq hazil mutoyibaga moyilligidir. Bu hikoyat ma'lum darjada Sa'diy uslubini eslatadi: o'sha katta turmush tajribasi va undan kelib chiqadigan hayot bilan murosachilik. Navoiy go'yo ahmoq darveshni ayblayotgandek bo'lsa-da, aslida uning zaifligiga ko'ngilchanlik bilan qarash, bu gunohini kechirish istagi doimo sezilib turadi.

To'qqizinchi savol (96-98-boblar). Muhabbat- bu qushning qo'l-oyog'ini bog'lab qoygan, shuning uchun u mahubidan uzoq ketolmaydi. Hudhud bu muhabbatning faqat tashqi shaklga qaratilganini , yolg'onchi dunyoda haqiqiy sevgini yo'qligini tushuntiradi. Bu yerda Arastu haqidagi hikoyat keltiriladi. Hikoyatning tuguni, ma'lum darajada, Rumi masnaviysining birinchi hikoyatini eslatadi, biroq Navoiy mavzuni batamom boshqacha talqin qilgan.

O'ninchi savol (99-101-boblar). Savol beruvchi qush o'limdan qo'rqadi. Hudhud hayotning bebaqoligi, o'lim soatining oldindan belgilab qo'yilganligi va undan hech kimning qutila olmasligini aytadi. Attor ushbu o'rinda Qaqnus haqidagi mashhur hikoyatni keltirgan. Navoiy esa Sulaymon haqida rivoyatni (101-bob) so'zlab beradi. Uning oldiga Azroil kelib, taxt yonida turgan to'raning tez orada jonini olish vazifasi o'ziga yuklatilganini aytadi. Azroilni hayratga solgan narsa bu ishni shu yerning o'zida emas, balki Hindistonda qilish kerakligi bo'ladi. Azroil uning jonini Hindistonda oladi. Bu hikoyatning ildizi yana Rumiya borib taqaladi.

O'n birinchi savol (102-104-boblar) u qush doimo qayg'u va g'amdan azob chekadi. Hudhud bu dunyoning g'ami va quvonchi o'tkinchi ekanligi, binobarin, ularga e'tibor qilmaslik lozimligini ta'kidlaydi va Misrda o'tgan bir boy haqidagi hikoyatni so'zlab beradi: unda istagan narsa muhayyo, ammo noshukurchilik qilib, doimo qayg'uga botib yuradi. Buning sabablarini so'rashganda, uning uchun "yagona do'st" Xudosiz dunyo zindondir, deydi.

O'n ikkinchi savol (105-107-boblar) –unda savol berayotgan qushda iroda yo'q, shu bois hamisha ozgalarining buyrug'iga bo'ysunadi. Hudhud uni qo'llab- quvvatlaydi va amrga bo'ysunish –yuksak fazilatdir, deydi. Barcha falokatlar, odamga sajda qilishdan bosh tortgan shayton haqidagi hikoyatda ko'rganimizdek (110-bob), itoatsizlikdan kelib chiqadi.

O'n uchinchi savol (108-110-boblar) safarga chiqqan kishi qanday qilib sof va samimiy bo'lishi mumkinligi haqida. Hudhud poklikka erishish uchun bu dunyodagi barcha narsadan voz kechish lozim deb hisoblaydi. Misol qilib Ibrohim Adhamni keltiradi va uning tasavvuf shayxlari tarjimai hollarining aksariyat to'plamlari uchun xarakterli bo'lgan taxtdan voz kechishi haqidagi rivoyatni so'zlab beradi hamda shunday xarakterli sahnani o'zidan qo'shadi. Ibrohim Balxdan qochgandan keyin, Nishopur yaqinidagi tog'larni makon qiladi. U yerda bir kuni bir necha qutb uni sinovdan o'tkazish uchun keladi. Undan kimsan deb so'raydilar. U javob qiladi: "Balxlik bir kishi". Qutblar uhali yetishmabdi, chunki Balx uning xayolidan chiqmabdi, degan qarorga keladilar.

O'n to'rtinchi savol (111-113-boblar) safarda hammaning ahamiyati borligi haqida. Hudhud himmatni muvaffaqiyatga tezroq erishishning ishonchli usullaridan birihisoblaydi va so'zlarining isboti uchun mashhur fors shoiri, shayx Ahmad Jomiy hayotidan olingan lavhani (113-bob) aytib beradi. U o'ziga qiyomat kunida Xudodan barcha gunohlarimdan o'tishini, do'zaxdan ozod etishini yoki do'zaxda joy qolmasligi uchun o'zining tanasini juda bahaybat darajaga keltirib, jahannamga tashlashini so'rayman, deb yurardi. Ushbu rivoyatning buddaviylik xarakterida ekanligini qayd etish lozim.

O'n beshinchi savol (114-116-boblar) "yo'l"da diyonat qanday foyda keltirishi haqida. Hudhud insof halokatdan saqlanish va barcha ta'limotlarning eng muhim poydevor toshidir, deya javob qaytaradi. Diyonat namunasi sifatida u mashhur xoja Muhammad Porsoni keltiradi. Bir kuni u muridi Abu Nasr bilan haj amallarini bajarayotgan ekan. Shunda u bilan birga bo'lgan ziyoratchilar hajlari qabul bo'lishi uchun undan duo qilishni so'rabdilar, biroq xoja shogirdining duo qilishini afzal ko'ribdi, chunki uning duosi tezroq mustajab bo'lar ekan.

O'n oltinchi savol (117-119-boblar) Simurg'ga nisbatan qo'pollik qilish-qilmasligi haqida. Hudhud bu faqat uning ulug' sirlaridan voqif va unga yaqin kishilargagina mumkinligini aytadi. Dalil sifatida quyidagi rivoyatni (119-bob) keltiradi. Bu rivoyat dostonga alohida go'zallik baxsh etadi.

Bor edi devonai oliysifat,

Xalq majnun alhaq aytib anga ot.
Chunki haq yodi anga mahbub edi,
Tun-u kun yod ila mag'lub edi.
So'z desa, Haqqa qilur edi xitob,
Haq tilidin o'q berur erdi javob.
Bir bahor ayyomi azm aylab safar,
O'zga baytullohni aylab maqar.
Chun riyozatdin tani erdi nahif,
Minmish erdi marqabi ul ham zaif.
Tun qorong'u bo'ldi-yu tutdi yog'in,
Ko'rdi Majnun sa'b ul yo'l bormog'in.
Bir buzug' ko'rdi-yu sokin bo'ldi ul,
Dedi: - "Ey tengrim, eshakdin voqif o'l!"
Kirdi markabni qo'yib vayronag'a,
Uyqu g'olib bo'ldi ul devonag'a.

O'n yettinchi savol (120-122-boblar) hammadan uzoqlashgan va Semurg' yodi bilan yashayotganlarning nima qilmoqliklari haqida. Hudhud bunday muhabbat – quruq da'vo, chunki uning Simurg'ga emas, balki Simurg'ning unga muhabbati muhimdir, binobarin, aksincha bo'lishi mumkin emas, deb javob qaytaradi. Isbot uchun shayx Boyazid Bistomiy haqida Attor dostonining tegishli o'rnida keltirilgan (2806 va keyingi b.) hikoyatni so'zlab beradi.

O'n sakkizinchi savol (123-125-boblar) qush o'zini kamolotga erishgan hisoblagani haqida. Hudhud uni xudbinlikda, ko'rlikda ayblaydi va Attordan olingan (2894 va keyingi b.) shayx Abu Bakr Nishopuriy haqidagi hikmatni gapirib beradi.

O'n to'qqizinchi savol (126-128-boblar) yo'ldao'zini nima bilan ovutish va qanday qilib qayg'uni haydash haqida. Hudhud Simurg'zikridan quvonish , qolgan barchasini xayoldan chiqarib tashlash lozim deya javob qiladi.

So'zining isboti uchun Abdulla Ansoriyning quyidagi hikmatli gapini keltiradi: "Xudoning zikri bilan limmo-lim to'lgan qalbnigina qalb deyish mumkin".

Yigirmanchi savol (132-134-boblar) Simurg' topilgandaundan nimani so'rash lozimligi haqida. Hudhud undan uning o'zidan boshqa narsani so'rash mumkin emas, chunki unda hamma narsa mujassam deydi. Buni Abu Said Xarrozning so'zlari ham tasdiqlaydi. U, garchi boshqalar bilan birga ibodat qilsada, istaklari allaqachon so'lgan, chunki nimani istagan bo'lsa, unga erishgan, hatto, xudoni ham topgan.

Yigirma birinchi savol (134-194-boblar) o'sha hukmdorga qanday sovg'a hadya qilish haqida. Hudhud u yerda bo'lmagan narsani olib borishni maslahat beradi: unda qayg'u vijdon azoblaridan boshqa hamma narsa bor. Xudoga ham allaqachon erishgan. Bunga izoh sifatida Attorda yo'q juda g'aroyib hikoyat keltirilgan. Bir qudratli shoh husni butun olamni halok qilmasin deb, o'z o'g'lini zindonga tashlaydi. Ota o'ladi va uning taxtini o'g'il egallaydi. Bir kuni maydonda chavgon o'ynayotgan edi. Ajib husnidan aqli shoshgan xalq unga ergashadi va kecha-yu kunduz uning bog'i atrofidan ketmaydi. Olomon tarqalishni istamayotgani uchun navjuvon shoh har kim o'zi qilishi mumkin bo'lgan biror narsa tayyorlashni taklif qiladi. Agar tayyorlangan narsa ma'qul bo'lsa, u ustaga o'z do'stligini ham hadya etadi va agar yoqmasa, uni qiynoqqa soladi va boshini chopib tashlash mumkinligini ma'lum qiladi. Shundan keyin shoh ust- boshini almashtirib, shahar kezadi va kim nima qilayotganini kuzatadi. Hamma unda bor bo'lgan narsani tayyorlaydi. Nihoyat, u zor-zor yig'lab, ko'z yoshlar to'kayotgan bir ajnabiyni ko'rib qoladi. Unda hech narsa yo'q, hech narsa qo'lidan ham kelmaydi va shuning uchun shohga faqat oh-voh va achchiq fig'onigina tortiq qilish muki, xolos. Bundan to'lqinlangan Shoh uning kulbasiga kiradi, mehribonliklar ko'rsatadi va ko'ksini quvonchlarga to'ldiradi.

Fors adabiyoti bilan tanish bo'lgan har qanday kishi bu hikoyatning forsiy muallif ayrim asarlari bo'ylab sochilgan turli mavzulardan tarkib topganini darrov sezadi. Unda sohibjamol shahzoda ham, chavgon o'yini ham, shohning tungi sarguzashtlari ham bor. Ular birgalikda dostonning eng nafis satrlarini tashkil etibgina qolmay, ta'sirchan manzara hosil qiladi.

Simurg'ga olib boradigan yo'l qanday va uni qanday bosib o'tish kerak, degan yigirma ikkinchi savol bilan dostonning keyingi qismi- "yetti vodi", ya'ni tasavvufiy kamolot yo'lidagi yetti asosiy bosqichning mashhur tavsifiga o'tamiz. Bu qism ham yuqoridagi kompozitsiya asosida qurilgan, faqat unda savollar yo'q va har bir vodiya ikkitadan parcha bag'ishlangan:

1)Vodiyning nomi hamda tavsifi;

2)Vodiyning tasvirlovchi hikoyat.

Navoiy bu yerda ham ilgari qo'llagan tamoyilini saqlab qoladi- vodiyning tasviri forsiy asliyatga juda yaqin iboralarda beriladi. Hikoyatning o'zi esa erkin ijodiy jarayon mahsuli bo'lish bilan birga, Navoiyning ijodiy yangiligi hamdir. Bu qism juda qiyin hisoblanadi, chunki o'ta murakkab ruhiy hodisalarning go'zal tavsifini kichik bir hikoyatchada beriladi. Hikoyatlarning mazmuni ham, Attorga qaraganda Navoiyda chuqur falsafiylikka ega.

Yo'ldagi birinchi vodiy talab vodiysidir. Uning tasviri har ikkala muallifda ham, aynan o'xshash jihatlar kuzatiladi. Masalan:

Chun furud oyi bu vodiy talab,

Pesht odid har zamoni sau ta't. ("Mantiq ut-tayr")

Chun talab vodiysig'a qo'ysang qadam,

Ollingg'a har dam kelur yuz ming alam. ("Lison ut-tayr")

Ushbu vodiyni tavsiflash uchun "Lison ut-tayr"da shunday hikoyat keltiriladi. Bir shohning sohibjamol o'g'li bo'lib, o'sha mamlakatda barcha odamlar uni ko'rishga intizor ekanlar. Bir kuni sayr paytida olomon unga g'amgin holatda boqadi. Shahzoda olomon ichidan ikki kishini tanib qoladi va ularni yoniga keltirishni buyuradi. Birini zindonga tashlashga amr qiladi, ikkinchisiga itlarini boqishni topshiradi. Ulardan tushgan holatlaringizdan rozimisizlar, deb so'radi. Ikkalasi ham bundan yaxshi holat haqida orzu ham qilmaganlarini aytishadi. Bu javobni eshitgan shahzoda sofдилliklari uchun ularni o'ziga mulozim qilib tayinlabdi.

Ikkinchi vodiy ishq vodiysidir (138-139-boblar). bu vodiyning mohiyati quyidagi hikoyat bilan izohlanadi. Mashhur al-Asmoiy yo'lda keta turib, dam olish uchun bir soy sohilida o'sgan daraxt tagida o'tiradi. U "muhabbat domiga tushgankishiga nima bilan yordamberish mumkin?" deb yozilgan toshni ko'radi. Siyohdonni chiqarib, o'sha zahotiyoq shunday so'zlarni yozadi: "Ehtirosning bu girdobida tozalikka intil!". Ikkinchi kuni u yana shu joyga keladi va yangi yozuvga ko'zi tushadi: "Agar u uchrashishga muhtoj bo'lsa va 'z muhabbatini yashira olmasa, u holda nima qilmoq kerak?"- "U holda muhabbat otashidan qutulish uchun 'lsin", deb yozib qo'yadi. Bir necha kundan keyin u yana o'sha joyga keladi va boshini toshga urib yorgan jonsiz oshiqni ko'radi.

Uchinchi vodiy- ma'rifat vodiysi(140-141-boblar). Eronning mutasavvuf shoirlari ko'p marta qalamga olgan ko'rlar va fil haqidagi mashhur hikoyat yordamida tavsiflanadi. Bu hikoyatning eng qadimgi varianti Sanoiyning "Hadiqat ul-haqoyiq" asarida keltirilgan. Undan keyingi varianti esa, Rumiyning Masnaviysida berilgan.

To'rtinchi vodiy- istig'no vodiysi (142-143-boblar). Uning mazmuni Navoiyda shohmot o'yinini eslatdi. O'yin boshlanganda shohmot taxtasida qat'iy tartib, to'liq qonuniyat hukm suradi. Biroq o'yin tugaganda, taxta ko'tariladi va natijada sipohlar aralashib ketadi, tartib yo'qoladi, shaxmat donalari xaltaga solingandan keyin unda shoh pastda qolib, piyoda balandda turib qoladi.

Beshinchi vodiy- tavidid vodiysi (144-145-boblar). Uning ma'nosini izohlash uchun shayx Abul Mansur haqidagi hikoyat keltiriladi. U tushida payg'ambarning me'rojga chiqqanini va qanday qilib arshi a'loga yetganini, Muhammad (s.a.v.) Xudodan o'z ummatlarining gunohlarini kechirishni so'raydi, ammo o'ziga hech narsa so'ramaydi. Shayx buning sababini bilolmay, uzoq vaqt o'yga toladi. Nihoyat, payg'ambar uning tushiga kiradi va "men tushunchasi u yerda yo'q edi, "deydi.

Oltinchi vodiy – hayrat vodiysi (145-146-boblar). Bunga misol qilib, Malika va G'ulom haqidagi katta hikoyat keltiriladi. Bu vodiya Navoiy va Attorda birmuncha o'xshashliklar kuzatiladi.

Nihoyat, yettinchi vodiy faqr va fano vodiysidir. Bu vodiy tavsifida Navoiy mahorati yanada joziba kasb etgan. Buni biz hikoyatning bir emas, birdaniga to'rtta keltirilganligidan ham ko'rishimiz mumkin. Chunki, tasavvufiy fa'noni sharhlash oson ish emasligini Navoiy anglatdi. 147-bob shayx Abul Abbos al-qasaba al-Omuliya bag'ishlangan. Bir betavfiq kishi xonaqohga keladi va tahorat qilmoqchi bo'lib, suv olib kelingan hamma idishlarni sindirgandan so'ng, shayxning soqolini talab qiladi. Shayx esa mening soqolim kimningdir mushkulini oson qilsa, unda beraman, deydi. Bunday tavozeni ko'rgan kelgindi shayxning oyog'iga yiqilib, tavba-tazarrular qiladi.

148-bobda shayx Naqshbandning o'zini-o'zi kamsitishi haqidagi hikoyat keltirilgan. Shayx o'zini qoq suyak itga o'xshatadi va uni o'zidan afzal biladi, chunki it o'z sohibiga sodiq, u esa-sotqin. Yo'lda itlarning izlarini ko'rib, ularni o'padi. 149-bobda shamning nuri qandayligini aniqlamoqchi bo'lgan parvonalar majlisi haqidagi Attorning hikoyati keltirilgan.150-bobda shayx Sufyon Sauriyning hikmatli so'zi berilgan. U xudoga qanday yetishish mumkin degan savolga, yo'l

minglab dengizlardan o'tadi, ulardan keyin ikki olamni ham odamlari bilan yamlab yutuvchi kit keladi deya javob qaytaradi.

Keyin (151-153-boblar) Navoiy Attordan farqli o'laroq, dostonga muhim bir yangilik qo'shadi. Attorda yo'lning oxiri yo'qligi-fano, biroq tasavvuf nazariyasi fano deganda yana bir bosqich borligini tushunadi. Bu baqo ya'ni, boqiylikdir. Bunda olloh bilan ruh birlashib ketadi. So'ngi uch parcha ana shu savolning yechimiga bag'ishlangan. Ularning oxirgisi Laylining yo'qligida u bilan gaplashgan Majnun haqidagi rivoyatdir. Uni Layli shu yerda, chunki u qalbmida yashaydi deya javob qilganlikda ayblaydilar.

Shundan keyin dostonning eng kulminatsion nuqtasiga- qushlarning so'ngi manzilga yetishganiga duch kelamiz (154-bob). Attorda ushbu o'rin so'z o'yini asosiga qurilgan. Navoiyda esa o'zgachadir:

Kimqilib Simurg' o'ttuz qush havas,

O'zlarin ko'rdilar ul si murg'u bas.

Bu yerda yana Attorda bo'lmagan izohlar bilan to'ldirishga harakat qilgan. U yuqorida keltirilgan misrani sharhlaydi va bu sir hadisning siri ekanligini qayd etib, qiziq bir baytni qo'shimcha qiladi:

Senda ham bilquvva ul mavjud erur,

Fe'lg'a kelsa davo maqsud erur.

Bu misra Attorning dostonida uchramaydigan falsafiy terminlari bilan ham e'tiborga loyiq va mazkur terminlar tasavvuf faylasuflaridan olingan. Ular ham, o'z navbatida, yunon faylasuflari asarlaridan olganlar. Bu termi nlar tasavvuf adabiyotida XIIIasrdan boshlab keng tarqaladi.

Bu yerda Navoiy mahorati yana ko'zga tashlanadi. U bu dostondan chetga chiqmaganligini quyidagi bayt orqali isbotlaydi:

O'z qoshimdin solmadim bu nav' tarh,

Ayladim Attor asrorin sharh.

Shundan keyin oldingi fikrni qanday ma'noda tushunish kerakligini izohlovchi hikoyacha keladi. Bir oshiq yigit o'z mahbubasini sarv daraxti va shu kabilarga o'xshatib madh etadi. U g'azablanib bunday qiyoslashlar nojoiz, negaki, sarv daraxti yurolmaydi deydi. Oshiq garchi bu aniq qiyoslash bo'lmasa ham, uning niyati juda ezgu ekanligini aytadi. Bunga yana Abdulla Ansoriyning hikmatli

so'zlari qo'shimcha qilingan (156-bob): "Qur'onni yuzaki o'qigandan ko'ra, Allohni madh etuvchi ashulani aytgan maqul". 158-159-boblarda Navoiy yana Attorga murojaat qiladi va uni ehtirosli satrlarda tarannum etadi. Uni avval Anqo qushiga o'xshatadi, chunki u ham yagona, qiyosi yo'q, keyin Mantiq ut-tayrga taqlid qilishga undagan sabablarni keltiradi:

Qush tili birla bayon aylab kalom,

To'tiyi guyodek o'ldi xosu om.

Forsiy oyini ulus fahm ettilar,

Barcha maxfiy diqqatig'a yettilar.

G'ayr xaylisoda atroki faqir,

Kim alarda komdur idroki kasir.

Boshqacha aytganda, bu asarga Navoiyni nafaqat shaxsiy manfaat, shuningdek, uni fors tilini yetarli darajada bilmagan turkiylar orasida keng yoyish istagi ham tortadi.

Keyin Qaqnus va uning Attorga yaqin iboralarda bayon qilingan o'limoldi qo'shig'i haqidagi hikoyat keladi:

Hast qaqnus turfa murg'i duriston,

Mavzii in murg'i dar Hindiston. ("Mantiq ut-tayr")

Bor emish qaqnus degan bir turfa tayr,

Hind mulkida anga oromu sayr. ("Lison ut-tayr")

Biroq bu hikoyatni bayon qilishdan kuzatilgan maqsad butunlay boshqacha – shirinzabon ulug' shoir Attor Qaqnusga o'xshatildi!

Shayx go'yo keldi ul avvalg'i tayr,

Kim navo ichra qilib umrida sayr.

160-bobda Attorda yo'q oxirgi qismi boshlanadi. Bu qator tantanavor jarangdorliklar bo'lib, Navoiy "vodiylar" haqidagi jo'shqin hikoyani shular bilan tugatadi. Mazkur hikoyat yetti murojaatdan iborat bo'lib, ularning har birida tegishli "vodiy" terminlaridan foydalanilgan. U ham oldingi qismlar kabi hamohang qurilgan va har bir bo'lim ikki bobga- duo hamda u bilan birga keluvchi hikoyatga bo'linadi.

Ularning mazmuni quyidagicha:

1) Birinchi vodiy duosi (160-161-boblar) - shayx Boyazid Bistomiy haqidagi hikoyat. Shayx Makkaga ketayotganda, bir muridi uning oldiga keladi. Orqaga ketayotganda ham u shayxning oldiga keladi va Ka'bani ko'rganini, lekin uning sohibi yo'qligini aytadi: Boyazid xitob qiladi: "Sohib yo'lda sen bilan birga edi!"

2) Ishq vodiysi (162-163-boblar) – Qays ibn Amir haqidagi hikoyat. Bir kuni undan isming nima deb so'radilar. U javob ayladi: "Laylo!" ya'ni uning nafsi batamom yo'qolgan.

3) Ma'rifat vodiysi (164-165-boblar) – darvesh shohning oldiga keladi. Shoh uni o'tirishga taklif etadi va unga hozir istagan narsangni keltiradi deydi. Darvesh faqat Xudoni istashini aytadi, chunki unga barcha narsani Xudo beradi, shoh esa hech narsa berolmaydi.

4) Istig'no vodiysi (166-167-boblar) – o'tli otashgohga tashlangan Ibrohim haqidagi hikoyat. Jabroil undan biror narsa kerak emasmi, deb so'raydi. "Sen tarafdin bo'lsa, hech narsa!" – deya javob beradi.

5) Hayrat vodiysi (168-169-boblar) – azob-uqubatda o'layotgan bir oshiq xudoga iltijo qilib, ma'shuqasining kelishini, chunki unga, hech bo'lmasa, ikki og'iz gap aytishi kerakligini aytadi. Uning istagi bajo keltiriladi, ammo oshiq hayratdan hech narsa deya olmaydi. U o'ziga kelganda, mashuqasi ketgan bo'ladi va u mashuqasiga hech narsa demay olamdan o'tadi.

6) Tavhid vodiysi (170-171-boblar) – Sulton Mahmud va uning mahrami Ayoz haqida. Mahmud uning yotoq joyida turib, husnini tomosha qiladi. U uxlamaydi, ammo o'zini uxlaganga oladi. Buni sezgan Mahmud undan nega g'amza qilasan, deb so'raydi. Ayozning javob berishicha, o'sha paytda u bo'lmagan. Uning uchun mavjud narsa faqat Mahmud bo'lgan. Bu hikoyat "Attordan oldingi ijodkorlarda kuzatilmaydi" – deb sharqshunos olim Bertels qayd etadi. Demak, bu Attorning ijodiy yangiliklaridandir.

7) Fano vodiysi (172-bob) – ismi ko'rsatilmagan bir shayxning duosi bayoni. Shayx o'zining foniyligini Xudoning mavjudligi kabi mutlaq bo'lishini so'raydi.

Doston shu yerda tugaydi va mavzuga taaluqli bo'lmagan yana besh parcha keltiriladi. 173-bobda biz yuqorida bayon qilgan "Lison ut-tayr"ning yuzaga kelish tarixi berilgan. Unga izoh tarzida Hirot ko'chalaridan birida devorning qanday qulagani haqidagi hikoyacha ilova qilingan(174-bob). Sarosimaga tushgan xalq falokat joyini o'rab oladi, shu yerda turgan darvesh esa jazavaga tushadi. Buning sabablari so'ralganda, devorning ko'cha tarafga qiyshayganini allaqachon ko'rgan edim, deb javob beradi. Modomiki, jonsiz devor oxir-oqibat niyatiga erishgan ekan, nahotki, u, tirik mavjudot o'z orzusini ro'yobga chiqqanini ko'rolmay o'lib ketsa!?

Navoiy buni o'ziga bir taskin sifatida keltiradi va qachon bo'lmasin, orzulari ro'yobga chiqishiga umid bog'laydi. Keyin biz yuqorida aytgan foniyligini haqidagi bob (175), sulton Husayn Abul G'oziyga bag'ishlov (176-bob) va dostonning yozilgan sanasi (904- hijriy, 1498-milodiy yilga to'g'ri keladi) hamda keltirilgan xulosa (179-bob) beriladi.

Xulosa qilib aytganda, ikkala dostonning kompozitsion qurilishi jihatidan, o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib o'tdik. Asarlardagi qushlar obrazi mavzu va g'oyani ochishda g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lib, o'zining muhim falsafiy, axloqiy qarashlarini ilgari suradi. Navoiy qushlar obraziga bir necha ko'rinishlarda : tabiiy-fiziologik, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy ko'rinishlarda yondashadi. Biroq ular alohida-alohida ifoda etilmay, balki bir-biridan kelib chiqadi va o'zaro organik birlikni tashkil etadi. Uslubning rang-barangligi qushlar obrazidagi hislatlarida namoyon bo'ladi.

**Ikki tilda yaratilgan bir mavzudagi dostonlarda badiiy mahorat
ko'rinishlari.**

Ikki tilda yaratilgan bir mavzudagi dostonlarda badiiy mahorat ko'rinishlari avvalo, asarlar kompozitsiyasining o'ziga xosligida ko'rinadi. Chunki, u yoki bu muallifning bu sohadagi o'ziga xosligi uning badiiy mahoratining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Avvalo, dostonlar kompozitsiyasi asarda ilgari surilgan g'oyaviy mazmunni o'ziga xos badiiy shaklda ifoda etadi. Shu jihatdan qushlarning ramziy sarguzashtlarini tasvirlovchi majoziy qissa va uning tarkibida keltirilgan turli-tuman hikoyatlar shoirning bosh g'oyaviy niyatini maqsadga muvofiq tarzda badiiy ifodalash uchun bo'ysundirilgan. Asarlardagi barcha qism va epizodlar ana shunga mos tarzda joylashtirilgan.

Ikkinchidan, ikkala dostonda kompozitsion jihatdan ham bir-biridan keskin farqlari ham mavjuddir. Masalan, Navoiy "Mantiq ut-tayr"da mavjud, ammo o'z g'oyaviy maqsadiga muvofiq kelmovchi qator epizodlarni tashlab o'tgan, o'rin almashtirgan, boshqacha talqin qilgan yoki yangi epizod va obrazlar kiritgan. Natijada, kompozitsiyadagi parokandalik va maqsadga muvofiqsizlik bartaraf etilgan, yaxlit va mantiq qoidalariga to'la javob beradigan o'ziga xos kompozitsion silsila yaratilgan.

Uchinchidan, "Lison ut-tayr" dostoni mavzu va g'oyasi jihatidan ko'p qirrali va rang-barang bo'lganligi sababli shoir asarda turli-tuman kompozitsion vositalardan ustalik bilan foydalanadi. Bular quyidagilarda ko'rinadi: voqeaning epik tasviri, qissa ichida hikoya keltirish, savol-javob, munozara usullari, lirik va falsafiy-didaktik chekinishlar qo'llash va hokazo.

Doston kompozitsiyasi haqida bahs yuritganda, undagi ayrim epizodlar tugagach, muallifning o'z munosabatini bildiruvchi lirik chekinishlar yoxud

“qissadan hissa ” chiqarish kabi kompozitsion usullar qo'llash mahorati haqida ham to'xtash joizdir. Ma'lumki, badiiy asarda lirik chekinish keltirib, tasvirlangan obyektga munosabat bildirish Navoiy “Xamsa”siga kirgan dostonlarga xos kompozitsion usullardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilardan A. P. Qayumov, S. E. Erkinov va boshqalar qayd qilganidek ¹⁷, bu lirik chekinishlar goho lirik munosabat, goho falsafiy-didaktik mulohaza, goho esa soqiy yoki mutribga murojaat tarzida ifoda etilgan. Bu an'ana “Lison ut-tayr” dostonida ham muvaffaqiyatli davom ettirilgan. Dostonda qayd etilgan lirik chekinishlarining barchasi u yoki bu munosabat bilan mavjud. Muhimi shundaki, asarda to'liq lirik chekinishlardan iborat bob va hikoyatlar ham uchraydi. Masalan, shoir asosiy qissa sujeti tugagach, unga o'z munosabatini “O'z adosi qusuri uzrig'a tamsil” sarlavhasi ostida “Oshiq va zulmkash ma'shuqa” hamda Abdulla Ansoriy hikoyatlari orqali ifodalagan bo'lsa, o'zining Attorga bo'lgan munosabati haqida so'z yuritib, lirik chekinish shaklida Qaqnus qushi haqidagi rivoyatni keltiradi. Bu haqda quyida batafsil to'xtalamiz. Dostondagi lirik chekinishlar orasidagi ayniqsa “Bu kitob nazmida o'z munosabatining taqribi” bobi alohida diqqatga sazovor. Bu bobda Navoiy, qayd qilganidek, o'zining bolalik yillari va Attor dostoniga bo'lgan qizg'in muhabbati haqida qimmatli avtobiografik ma'lumotlar beradi. Shunga yaqin holatni “Shayx San'on” qissasi so'ngida shoirning o'z shaxsiy sevgisi va bu haqda maxsus doston yozmoqchi bo'lganligini xabar beruvchi lirik chekinishida ham uchratamiz. Albatta, ular dostonning g'oyaviy-badiiy qimmatini oshirishdan tashqari, muallifning hayoti va ijodi, o'z asari va salafiga bo'lgan munosabati haqida nodir ma'lumotlarni mujassam ettirganliklari bilan ham muhim ahamiyat kasb etadilar.

“Mantiq ut-tayr” hamda “Lison ut-tayr” dostonlarida badiiy mahorat ko'rinishi shakl va mazmun o'zaro uyg'unlikda tasvirlanganligidadir. Bu esa asarlarning mukammalligidan, mazmunan pishiqligidan dalolat beradi. Har qanday mukammallikda uyg'unlik bo'ladi. Badiiy asar uyg'unligi esa bo'laklar bilan butun

¹⁷ Каюмов А. “Хайрат ул-аброр” талкини. 137-138-бетлар; Садди Искандарий. 140-168, 188-192-бетлар; Эркинов С. Навоийнинг “Фарход ва Ширин”и ва унинг киесий тахлили. 208-211-бетлар.

aro uzviy vobastalikda ko'rinadi. Masalan, Navoiy nimaga e'tiborni qaratmoqchi bo'lsa, o'quvchi diqqatini asar davomida bot-bot o'sha nuqtaga jalb qilaveradi, ana shu maqsadiga kamarbasta bo'lishi mumkin so'zlarni qayta-qayta tilga olaverishdan hech ham charchamaydi. Chunki, u kitobxon diqqatini kerakli nuqtaga yig'ib borish san'atining piri komili.

Bir so'z hadeb takrorlanaveradimi, demak shoir nimanidir nishonga oldi. Endi muallif asardan ko'zda tutgan bosh maqsadlar ham ana shu mo'ljal orqali amalga oshadi. Shu ma'noda, keling, "Lison ut-tayr" matnidagi baytlar bo'ylab safar qilaylik...

Dostonning ilk satrlarini o'qiy boshlaymiz:

Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,
Tengri hamdi birla og'oz aylagay.

Ulki mahluqot xallokidur ul,
Ondin o'zga foni-yu, boqiydir ul.

"Lison ut-tayr" hamda "Mantiq ut-tayr" –shaklan qushlar haqidagi asarlardir. Shuning uchun tanosib san'ati talabiga binoan, "ko'ngil" degan tushunchani shoir "jon qushi" istiorasi bilan ifodalagan. "Mantiqi roz", so'zma-so'z olganda, "sirlarni nutqqa solish", demak, sirlarni ifodalashni bildiradi. Lekin, "mantiq" so'zi ham bekorga kelgani yo'q: Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr"ga ishora bor bunda. Sababi ma'lum—"Lison ut-tayr" ana shu "Mantiq ut-tayr"ga "tarjuma rasmi bila" aytilgan javobiya. "Tengri" go'yo an'anaga ko'ra tilga olingandek. Biroq, bu doston mohiyatini ochishda tengri shu qadar katta o'rin tutadiki, buni yuqorida keltirilgan parchada "jon" so'zi bilan bir ipga tizilgan ikki shodadek bog'lanib turganligida ham ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi baytda esa, bevosita asarning ichki masalasiga otildi: Xudo barcha maxluqlar, ya'ni jonzotlarning yaratuvchisi, undan boshqa barcha narsalar foni, u esa boqiydir.

Ana shu ikki baytni ushlab turgan tushunchalar aro bog'liqlik asosida muvozanat hosil bo'ladi: jon-foniy, tangri-boqiy. Bu to'rt so'zda shunchalik katta ma'no mujassamki, kitobxonda muammoli bir savol uyg'otadi: xo'sh, Jon, ya'ni inson ham Boqiy bo'lishi mumkinmi? Shoir hali bunday masalani ko'targan emas. Ammo ziyrak o'quvchi his qiladiki, butun asar ana shu muhim savolga javob izlashga bag'ishlansa kerak...

Umuman olganda, Alisher Navoiy an'anani davom ettirib izdoshlik qilmoqda. Buni "Lison ut-tayr"dagi Qaqnus haqidagi masalda ham ko'rishimiz mumkin. Navoiy dostonning oxirida Farididdin Attor an'anasinidavom ettirganidan so'z yuritib, Qaqnus qushi haqidagi qiziqarli rivoyatni keltiradi. Tasvirlanishicha, Hindistonda Qaqnus nomli chiroyli va minqorijuda ajoyib tarzda tuzilgan qush bor emish. Uning jufti bo'lmas emish, o'zi o'rmonda tanho yasharmish. Umri bo'yi o'tin terarmish va minqoridan shunday chiroyli ovoz chiqarmishki, uni eshitgan barcha qushlar maftun bo'lib qolarmish. Ana shunday xonishni eshitgan Fisog'urs (Pifagor)ham shuning asosida musiqa fanini yaratganmish. Qaqnus umri oxirida o'zi yiqqan o'tinlarni kuydirarmish va o'ziham yonarmish. O'tinlar ham, Qaqnus ham yonib kul bo'lgach, kul ichidan qaqnus bolasiqanot yozib chiqarmish va otasi ishini davom ettirarmish.

Bu rivoyat so'ngida Navoiy Farididdin Attorni ota Qaqnus o'zini esa Qaqnus polaponiga o'xshatib, yozadi:

Har nekim ko'rdi otamdin ro'zgor,
Ham oni bo'ldi manga omuzgor.
O'rtadim olam elini, o'zni ham,
Qush tilidin o'zga qilmayso'zni ham.
Budir umidimki bu so'zi fano,
Borcha kuyganga baqo bergay yano.

Hikoyatning buyog'i yanada qiziq. Foniylar Shayx Farididdin Attorni o'sha avvalgi qaqnusga o'xshatadi. U ham qaqnus kabi umr bo'yi navo chekdi, uning halok qiladigan navosidan esa qancha yaxshiy hayvonu qush o'sha xirmonu uning egasi kabi kul bo'ldi:

Shayx go'yo keldi ulavvalgi tayr,-

Kim navo ichra qilib umrida sayr.

Chekti oncha lahn aro dilkash navo,-

Kim simo'i vahshu tayr aylab havo.

Borcha ul muhlik navodin o'ldilar,

Xirmanu sohib kibi kul bo'ldilar.

Endi navbat kuldin chiqqan qaqnusbachaga keldi. Bu qaqnusbacha-Foniylarning o'zi! U ham kuldin o'tda kuymas hayvon –Samandardek chiqib, avvalgi qushdek umri bo'yi bir nimalar jamladi, hayoti poyonida tumshug'idan yuz xil navo chiqarib, xudoning yashirin sirlaridan kuyladi, bu kuyidan o'ziga ham, xirmoniga ham, hatto boshqalarga ham o't qo'ydi:

Ulki-ul kullardin axgardek chiqib,

Balki axgardin samandardek chiqib,

Har nekimavvalg'i qushqa erdi shon,

Zohir o'ldi munda ham ondin nishon,

Bu dog'i degancha nima jam etib,

Chun muning umrig'a ham poyon etib.

Gulshanu davronaro har nav' qush,

Yo'qki, yolg'uz tayru bas, balkim vuxush.

Yuz navo zohirqilib minqo ridin,

Borcha haqning yoshurun asroridin.

O'ziga, hirmang'a dog'i o't urub,

Ham o'zin, ham o'zgalarni kuydurub.

Foniyning umr poyonida kuylagan, shundan xirmonigayu o'zigayu boshqalarga ham o't qo'ygan navosi – “Lison ut-tayr” edi! Shoir keyingi baytda o'zini Farididdin Attorning o'g'li sifatida ta'riflaydi. Ammo darhol ana shu ta'rifidan go'yo himoyalana ham, chunki, axir, Attordek avliyoga o'zni teng qo'yib bo'ladimi? Attorni shohi oliysifat, o'zni esa banda, qul hisoblashni maqul ko'radi. Bu esa yozuvchining yuksak mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi:

Men demonkim, ul-atodur, men-o'g'ul,

Ul-shohi oliysifat, men-banda, qul.

Bu kamtarona bir ta'rif. Zero, Foniy bundan keyingi baytlarda yana o'sha ustozni bevosita otam deb ataydi.

Attor va Navoiy, qaqnus va qaqnusbacha, baqo va fano!... qanchalar vobasta tushunchalar bular. Qaqnus esa tabiatan tasavvuf aqidalariga naqadar uyg'un kelgan go'zal bir timsol! Chunki unga o'zni o'rtash, jismni kuydirib, undan voz kechish, ruhning o'lmasligi, baqoga yetish, abadiy tiriklik maqsadlari yaqqol aks etgan. Lekin, buyerda boshqa bundan-da muhimroq masala bor. Albatta, Attor-qaqnus, men- qaqnusbacha, deyish “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr” munosabatlarini bildirish uchun eng qulay va jozibali tashbih sifatida tasvirlangan. Bu ajoyib o'xshatishlar Attor va Navoiy o'rtasidagi ijodiy munosabat va Navoiyning o'z ustoziga bo'lgan chuqur hurmatining obrazli ifodasidir. Shu bilan birga tashbeh san'atining eng go'zal namunalaridan biri hamdir.

Bu bilan Navoiy o'tmish an'analari keyingi avlod tomonidan davom ettirilishi, qonuniy bir hodisa ekanligini, bu qonuniyat badiiy ijodga ham bevosita

dahildorligini uqtiribgina qolmay, bu narsa shoirning ijodiy mahoratidan ham dalolat beradi. Demak, Navoiy ham Attor izidan borib, tavhidni Mahmudu Ayozi ishq misolida tushuntirgan, lekin endi voqeani o'zgartirgan. Bu "Lison ut-tayr"dagi muhim qat'iyatlardan biri.

Mahmud va Ayozi ishq sharoqda Navoiydan oldin ham ma'shuqning oshiqqa aylanishi na'munasi tarzida mashhur bo'lgan. Shayx Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoni "Dar bayoni vodii panjum, ki tavid boshad" ("Tavid deb ataladigan beshinchi vodiy bayonida") bobida ilgari surilgan fikrlarga hayotiy dalil sifatidagi besh hikoyatning hammasi ham tavid, ya'ni yor bilan birlashib ketishga misol bo'lib kelgan. Beshinchi hikoyatda esa ana shu mashhur oshiq-ma'shuqlar – Mahmud bilan Ayozi ishq qalamga olinadi.

Sahroda Mahmud lashkarlari saf tortib, shoh ko'rigidan o'tadilar. Attor tili bilan aytganda, "olamni filu sipoh" bosadi. Shunda Mahmud yonida o'tirgan mahrami xosi-Ayozi:

Xast chandin filu lashkar oni man,

In hama-oni tu, tu-sultoni man.

Ya'ni: "Menga qarashli qancha filu lashkar bo'lsa, hammasi- seniki, sening o'zing esa mening sultonimsan", -deydi. Ayozi shohning bu marhamatiga hech qanday javob qilmaydi, ta'zim bajo keltirmaydi ham. Shunda shohning yonida o'tirgan Hasan Ayozi tanbeh beradi. Ayozi unga, jumladan:

Banda oni o'vu tashrif oni o',

Man kiyam, farmon hama-farmoni o',

Ya'ni: "Men-uning quliman ulug'lash ham uniki, men kim bo'libman, farmonning hammasi-uning farmoni", - deb javob qaytaradi. Demak, bu yerda: Sulton Mahmud bilan Ayozi bir-biridan ajratib qarashga hech qanday hojat yo'q,

deyilmoqchi. Chunki, bu ikkisi aro vahdat sodir bo'lgan. Zotan, Ayozi Hasanga yana shundaydeydi:

Gar tu mebinii kasero on zamon,

Man nayam, on hast ham shohi chahon.

Ya'ni: "Agar sen o'sha paytda biror kishini ko'rsang, uni ham men deb emas, shohi jahon (Sulton Mahmud) deb bilaver".

Shundan keyin dostonning eng kulminatsion nuqtasiga - qushlarning so'ngi manzilga yetishganiga duch kelamiz (154-bob). Attorda ushbu o'rin so'z o'yini asosiga qurilgan. Navoiyda esa o'zgachadir:

Kim qilib Simurg' o'ttuz qush havas,

O'zlarin ko'rdilar ul si murg'u bas.

Bu yerda yana Attorda bo'lmagan izohlar bilan to'ldirishga harakat qilgan. U yuqorida keltirilgan misrani sharhlaydi va bu sir hadisning siri ekanligini qayd etib, qiziq bir baytni qo'shimcha qiladi:

Senda ham bilquvva ul mavjud erur,

Fe'lg'a kelsa davo maqsud erur.

Bu misra Attorning dostonida uchramaydigan falsafiy terminlari bilan ham e'tiborga loyiq va mazkur terminlar tasavvuf faylasuflaridan olingan. Ular ham, o'z navbatida, yunon faylasuflari asarlaridan olganlar. Bu terminlar tasavvuf adabiyotida XIII asrdan boshlab keng tarqaladi.

Bu yerda Navoiy mahorati yana ko'zga tashlanadi. U bu dostonidan chetga chiqmaganligini quyidagi bayt orqali isbotlaydi:

O'z qoshimdin solmadim bu nav' tarh,

Ayladim Attor asrorin sharh.

Shundan keyin oldingi fikrni qanday ma'noda tushunish kerakligini izohlovchi hikoyacha keladi. Bir oshiq yigit o'z mahbubasini sarv daraxti va shu kabilarga o'xshatib madh etadi. U g'azablanib bunday qiyoslashlar nojoiz, negaki, sarv daraxti yurolmaydi deydi. Oshiq garchi bu aniq qiyoslash bo'lmasa ham, uning niyati juda ezgu ekanligini aytadi. Bunga yana Abdulla Ansoriyning hikmatli

so'zlari qo'shimcha qilingan (156-bob): "Qur'onni yuzaki o'qigandan ko'ra, Allohni madh etuvchi ashulani aytgan maqul".

Doston kompozitsiyasining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri unda "qissadan hissa" usulining borligi bilan belgilanadi. Bu kompozitsion usul Sharq adabiyotida juda ko'p qo'llanilgan. Uning mumtoz na'munalarini "Kalila va Dimna" masallarida, "To'tinoma" hikoyalarida, Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarida uchratish mumkin. Bu usuldan Navoiy ham o'z asarlarida o'rinli foydalangan. Bu holat ayniqsa "Lison ut-tayr" hikoyalari so'ngida yorqin seziladi. Masalan, "Xasis kishining o'limi" hikoyasida o'z hayotini oltin-kumush yig'ishga bag'ishlagan ziqna odam obrazi chizilib, uning hayoti fojiali o'lim bilan tugaydi. Muallif yuz bergan hodisadan shunday xulosa chiqaradi:

Siymdin yetti bu ofat jonig'a,

Tushti yag'mo maxzani pinhonig'a.

Siyim yig'moqqa natija bo'ldi bu,

Sen oning savdosidin ilkingni yuv¹⁸.

Bu didaktik xulosa qanchalik ibratli bo'lsa, badiiy jihatdan ham shunchalik ko'rkamdir. Xususan, oxirgi misradagi "ilkingni yuv" iborasi baytga o'ziga xos go'zallik bag'ishlab, xulosaning hayotiy chiqishini ta'minlagan. Bu xildagi "qissadan hissa" chiqarishning ajoyib mnamunalari dostonidagi "Riyokor qalandar", "Masxaraboz hindi", "soxta oshiq", "Ganj axtargan devona" kabi hikoyatlar tarkibida ham mavjud.

Endi esa, Navoiyning sujet yaratish mahoratiga to'xtalsak. U doston sujetining mantiqan asosli va qiziqarli bo'lishiga alohida e'tibor bergan. Shu sababli dostonida bir-biri bilan bog'lanmagan voqealar umuman yo'q. Barcha epizodlar voqea rivoji talabiga mos ravishda joylashtirilgan va ularo'zaro birlashib, o'ziga xos badiiy silsilani tashkil etadi. Shoir qoliplovchi qissa sujetini ketma-ket

¹⁸ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. 231-bet.

tugunlar keltirib chiqarish asosiga qurib, asarning oxiriga qadar uzluksiz hayajon bilan o'qilishini ta'minlagan. Dostonning ekspozitsiya qismidagi adolatli qushlarning adolatli shohga muhtoj bo'lish voqeasi asr sujetining ilk tuguni bo'lsa, qushlarning keyingi sarguzashtlari davomida tugunlar silsilasi davom etib, yangi-yangi tugunlar kelib chiqadi. Ular asosan quyidagi epizodlar tarkibida mavjud: qushlarning safardan bo'yin tovlab, uzr bildirishlari; ularning cheksiz vodiylar boshiga kelib, yo'lni qanday davom ettirishni bilmay, qiynalishlari; yetti vodiylardan uchib o'tgach, ko'zlangan manzil o'rnida tasavvurlariga zid joyning paydo bo'lishi. Asar sujetidagi barcha epizodlar va voqea rivoji anashu tugunlar bilan bog'liq. Bu hol sujetning harakatli, ya'ni dinamik tasvirlanganligini ko'rsatadi.

Badiiy asarda portret yaratish obrazning ma'naviy qiyofasini yorqin ko'rsatuvchi muhim usuldir. "Lison ut-tayr"da bu usulning ajoyib namunalarini uchratamiz. Xususan, dostonda qushlarning o'ziga xos qiyofalari mohirlik bilan chizilgan. Navoiy qushlar va Hudhud munozarasi epizodida har bir qushning o'ziga so'z berib, ularning o'z tilidan tashqi qiyofalari, shakli-shamoyili va turmush tarzi haqidagi xarakterli tomonlarni gavdalantira olgan. Masalan, shoir Qarchig'ay qushini tafsiflar ekan, avval uning changal va minqori (tumshug'i) ni, keyin ov qushi ekanligi va shohlar qo'llarida ko'tarib yurishini, ya'ni o'sha qushga xos muhim belgilarni uning o'z tilidan ta'riflab beradi. Yoki Burgut uzrida uning tog'larda yashashligi, savlati yirik, qahri yomonligi va shu kabi unga xos xususiyatlar ifodalangan:

Savlatim mufritduru qahrim yomon,

Tog' mulki ichra menmen qahramon.

Necha kaklik to'madur har kun manga,

Bo'lmasa bu uyqu kelmas tun manga...¹⁹

Dostondagi boshqa qushlar haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Qizig'i shundaki, asarda har bir qush o'z ismi va jismiga mos ravishda gapiradi. Natijada kitobxon ko'z o'ngida har xil tus, qiyofa va xarakterdagi qushlar birin-ketin

¹⁹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. 55-bet.

namoyon bo'ladi. Bu shoirning qushlar obrazini yaratishdagi o'ziga xos alohida mahoratidir.

Dostonda tashqi ko'rinishi bilan amaliy faoliyati bir xil bo'lmagan qahramonlarning portretlari ham yo'q emas. Jumladan, hiylakorlik bilan kun kechiruvchi soxta qalandarning qiyofasi quyidagicha berilgan:

Zarq uchun egnida dalqi Xizrvash,

Lek yoshil barg birla nafsi xush .²⁰

Bu munofiq kishi o'zining ayyorligini qalandarlar kiyib yuradigan yashil libos orqali yashirmoqchi bo'ladi. Xolbuki, qalandarlik hirqasini kiygan kishi o'zini har xil xarom ishlardan chetga tortishi kerak. Bu qahramonning esa qilgan razilona ishlari tashqi libosiga ziddir.

Navoiy qahramonning portretini harakatda , turli vaziyatlar ko'rinishida , uning ruhiy kayfiyatiga mos holda chizib beradi. Misol uchun "Shayx San'on" qissasidashoir shayxning tashqi qiyofasiga batafsil to'xtalmay, balki uning portretini ayrim voqea-hodisalar orqali yo'l-yo'lakay berib boradi. Bu hol xristian qizining unga aytgan kinoyali so'zlarida , o'z dinidan voz kechib, boshqa e'tiqodni qabul qilayotgan paytlarida ayniqsa yorqin seziladi.

Navoiy inson ruhiyatini chuqur bilgan, uning murakkab ichki dunyosini barcha ziddiyatlari bilan ifoda etishga intilgan san'atkordir. Doston qoliplovchi qissasidagi ayrim epizodlar va asar tarkibidagi ba'zi hikoyatlar va "Shayx San'on"qissasi o'zining psixologik tasvirga boyligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, Faqru fano vodiysida umidlari sarob bo'lib chiqqan o'ttizta qushning ruhiy holati quyidagi ta'sirli satrlarda yorqin chizilgan:

Dedilar:-"Mehnatlarimizdin darig',

Tortqon shiddatlarimizdin darig'!..

Hayf buncha sa'y ila umidimiz,

Orzuyi davlati jovidimiz,

Bor ekanmu biz kibi mahzun guruh,

Orzuyu sa'ydin mag'bun guruh"²¹.

²⁰ O'sha asar. 36-bet.

²¹ O'sha asar. 213-bet.

Ushbu tasvir kutgan maqsadi amalga oshmagan o'ttizta qushning qalb nidosidir. Attor dostonida ham o'ttizta qush obrazi mavjud bo'lsa-da, unda mazkur voqeadan kelib chiqadigan bunday psixologik holatni tasvirlash ko'zga tashlanmaydi. Navoiy dostonida esa u sujet taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, voqealarning umumiy rivojidan kelib chiquvchi mantiqiy zaruratdir.

“Lison ut-tayr” dostonining g'oyaviy yuksak, badiiy jihatdan pishiq va hissiy-ta'siriy chiqishida an'anaviy tasviriy vositalarning ahamiyati juda kattadir. Muhimi shundaki, Navoiy Sharq poetikasida amalda bo'lgan badiiy-tasviriy vositalarni mazmun talabiga bo'ysundiradi. Asarda qo'llanilgan tasviriy vosita va usullar shaklbozlik uchun emas, balki shoirning g'oyaviy maqsadini aniq va yorqin, badiiy jihatdan go'zal ifodalash uchun xizmat qiladi. Navoiyning an'anaviy tasviriy vositalardan foydalanish mahorati haqida ish olib borgan mutaxassislardan Maqsud Shayxzoda, A. Rustamov va Yo. Is'hoqovlar to'g'ri qayd qilganlaridek, shoir turli badiiy vositalarni qo'llashda ularni mazmunni chuqur ochishga safarbar qilib, ko'pgina yangiliklar kashf etadi, ulardan yangi vazifalarni ifoda etishda faol foydalanadi²².

Ma'lumki, badiiy-tasviriy vositalar “fikrni ravon va nafis ifodalash yo'llari va vositalari, badiiy san'atlarning turlari hamda xususiyatlari kabi muhim masalalarni o'z ichiga oluvchi”²³ ilmi bade'ning muhim tomonini tashkil etadi. Ikkala dostonida ham majoz san'atidan keng va atroflicha foydalanilgan. Dostonlardagi qoliplovchi qissasining majoziy xarakterda bo'lgani va undagi asosiy personajlarning qushlar ekanligi shundan dalolat beradi. Dostonlardagi bu san'at turli maqsadlarda qo'llanilgan. Goh sof falsafiy tushunchalarni ifodalovchi majoziy obrazlar uchrasa, goho majoz qushlar obrazi misolida jamiyatdagi har xil qushlarning allegorik obrazlarini ifodalash vazifasida ishlatiladi.

Shu o'rinda Navoiy majoz bilan bog'liq holda tashxis va intoq kabi san'atlarni ham keng qo'llaydi. Muallifning mavjudotlar olamiga murojaat qilib, narsa va predmetlarni insonday jonlantirishi, ularga insoniy sifat va xususiyatlar baxsh etishi tashxis san'atiga xos muhim belgilardir. “Mantiq ut-tayr”da ham “Lison ut-tayr”da ham aynan mana shu san'at vositasida turli-tuman qushlarning majoziy obrazlari vujudga keltirilgan.

Intoq san'atiga ko'ra esa, tabiatdagi jonli va jonsiz predmetlarga nutq beriladi, ularga insonlar kabi gapiradi va fikr yurita oladilar. Dostonlarda bu san'at

²² Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent, 1979.

²³ Isohokov E. Klassik adabiyot poetikasidan ma'bulmotlar// Uzbek tili va adabiyoti. 1970, 1-son, 84-bet.

ham keng qo'llanilgan. Natijada qushlar xuddi odamlardek o'zaro so'zlasha oladilar, bir-birlari bilan bahs va munozaraga kirishadilar, savol-javob qiladilar.

“Mantiq ut-tayr” hamda “Lison ut-tayr” dostonlari aruzning ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Ularning ruknlar paradigmasi quyidagicha:

Chun “Lison ut-tayr” og'oz ayladim,

Turfa qushlar birla parvoz ayladim²⁴.

-V-- -- | - V -- -- | - V -

Bu vazn Sharq mumtoz dostonchiligining falsafiy-didaktik yo'nalishi sohasida qo'llanilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining aruz haqidagi risolasida Attorning “Mantiq ut-tayr”i va boshqa qator dostonlari, Rumiyning “Masnaviyi ma'naviy”, Jomiyning “Salomon va Absol” dostonlari mazkur vaznda yozilganligini qayd qiladi²⁵. Albatta, bu vaznning falsafiy-didaktik dostonchilik sohasida qo'llanilishining o'ziga xos sabablari bor. Chunki u muallifga fikrni ravon va sodda, hammabop tarzda ifodalash uchun qulay imkoniyatlar yaratib beradi. Zotan, falsafiy-didaktik doston yozishdan ko'zlangan maqsad ham xalqqa falsafiy, ma'rifiy va axloqiy-ta'limiy fikrlarni targ'ib va tashviq etishdir.

Qissadan hissa shuki, ikki tilda yaratilgan bir mavzudagi dostonlarda badiiy mahorat ko'rinishlari asarlar kompozitsiyasining o'ziga xosligida, sujet yaratilishida, badiiy san'atlar qo'llanilishida, kompozitsion vositalardan ustalik bilan foydalanishlarida ko'rinadi.

“Lison ut-tayr”ning badiiy-poetik xususiyatlari haqida yuqorida bildirilgan mulohazalar, Alisher Navoiy tomonidan ilgari surilgan badiiy asarda mazmunning birlamchiligi, mazmun va shaklning o'zaro aloqadorligi hamda yuksak ijtimoiy mazmun go'zal badiiy shaklda ifodalanishi lozimligi haqidagi ilg'or adabiy-estetik qarashlarga shoir umrining oxiriga qadar sodiq qolgani va bu talabni o'z ijodiga to'la tadbqiq qilgan holda ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritganligini har tomonlama tasdiqlab va isbotlab turibti.

Navoiy doston tilining badiiyligi va xalqchilligini amalga oshirishda jonli xalq tili durdonalari hisoblanganmaqol frazeologik va turg'un birikmalardan keng foydalanadi. Bu esa, asarga hayotiylik baxsh etadi. Ayniqsa, Navoiy jonli xalq so'zlashuv tiliga xos ayrim bo'yoqdor so'z (masalan, “uyat”, “hayf”, “mokiyon” va b.) va iboralarni doston tarkibida ko'plab qo'llab, asar tilining xalqchil chiqishini,

²⁴ Lison ut-tayr.241-bet.

²⁵ Bobur. Muxtasar.162-bet.

uning obrazli va ifodali bo'lishini ta'minlagan. Dostonda erta kunni kech qilma, yo'lingdan qolma, boshga solmoq, boshidan chiqmoq, yerga urmoq, yuzi qaro bo'lmoq, hazilni chin bilmoq kabi iboralardan foydalanilgan. Diqqatga sazovor joyi shundaki, yuqorida qayd etilgan iboralarning ko'pchiligi hozirgi kunda ham xalq jonli so'zlashuvida keng qo'llaniladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mumtoz adabiyotimiz hamda tasavvuf adabiyotining taniqli vakillaridan bo'lgan Attorning "Mantiq ut-tayr" va Navoiyning "Lisonut-tayr" asarlarini qiyosiy metoddan foydalanib, qiyosiy tahlil asosida yoritildi. Bu jarayonda ikki tilda yaratilgan bir mavzudagi dostonlardagi farqli jihatlar hamda mushtarak jihatlariga e'tiborimizni qaratdik.

Ramziy-majoziy usul orqali, xususan, qush tili vositasida badiiy asar yozish Sharq xalqlari adabiyotida qadimiy va murakkab tarixga ega bo'lib, bu xildagi asarlarning dastlabki namunalarini xalq og'zaki ijodida ham uchratishimiz mumkin. Ammo, rasmiy tarzda yozma adabiyotda qush tili vositasida yozilgan badiiy-falsafiy asarlarning ilk namunasi Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub "Risolatut-tayr" asaridir. Mazkur asarning yaratilishi bilan bevosita Sharq xalqlari badiiy tafakkuri taraqqiyotida chuqur iz qoldirib, ularda yangi bir an'anani – qush tili orqali badiiy-falsafiy asar yozish an'anasini boshlab berdi. Davr o'tishi bilan insonlarning tajribasi ham orta boradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu asarlarning har taraflama, ham g'oyaviy jihatdan, ham mazmun jihatidan eng yuksak hamda yetuk namunasi bu albatta, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidir. Yana shuni ta'kidlash joizki, har bir asar yaratilayotgan davrning eng dolzarb muammolarini aks ettirishini inobatga olsak, G'azzoliy, Gulshahriy va Attor asarlarini ham bu tipdagi yuksak asarlar desak bo'ladi.

Ikkala dostonning kompozitsion qurilishi jihatidan, o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib o'tdik. Asarlardagi qushlar obrazi mavzu va g'oyani ochishda g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lib, o'zining muhim falsafiy, axloqiy qarashlarini ilgari suradi. Navoiy qushlar obraziga bir necha ko'rinishlarda : tabiiy-fiziologik, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy ko'rinishlarda yondashadi. Biroq ular alohida-alohida ifoda etilmay, balki bir-biridan kelib chiqadi va o'zaro organik birlikni tashkil etadi. Uslubning rang-barangligi qushlar obrazidagi hislatlarida namoyon bo'ladi. Qissadan hissa shuki, ikki tilda yaratilgan bir mavzudagi dostonlarda badiiy mahorat ko'rinishlari asarlar kompozitsiyasining o'ziga xosligida, sujet yaratilishida, badiiy san'atlar qo'llanilishida, kompozitsion vositalardan ustalik bilan foydalanishlarida ko'rinadi.

"Lison ut-tayr"ning badiiy-poetik xususiyatlari haqida yuqorida bildirilgan mulohazalar, Alisher Navoiy tomonidan ilgari surilgan badiiy asarda mazmunning birlamchiligi, mazmun va shaklning o'zaro aloqadorligi hamda yuksak ijtimoiy

mazmun go'zal badiiy shaklda ifodalanishi lozimligi haqidagi ilg'or adabiy-estetik qarashlarga shoir umrining oxiriga qadar sodiq qolgani va bu talabni o'z ijodiga to'la tadbiq qilgan holda ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritganligini har tomonlama tasdiqlab va isbotlab turibti.

Navoiy doston tilining badiiyligi va xalqchilligini amalga oshirishda jonli xalq tili durdonalari hisoblangan maqol frazeologik va turg'un birikmalardan keng foydalanadi. Bu esa, asarga hayotiylik baxsh etadi. Ayniqsa, Navoiy jonli xalq so'zlashuv tiliga xos ayrim bo'yoqdor so'z (masalan, "uyat", "hayf", "mokiyon" va b.) va iboralarni doston tarkibida ko'plab qo'llab, asar tilining xalqchil chiqishini, uning obrazli va ifodali bo'lishini ta'minlagan. Dostonda erta kunni kech qilma, yo'lingdan qolma, boshga solmoq, boshidan chiqmoq, yerga urmoq, yuzi qaro bo'lmoq, hazilni chin bilmoq kabi iboralardan foydalanilgan. Diqqatga sazovor joyi shundaki, yuqorida qayd etilgan iboralarning ko'pchiligi hozirgi kunda ham xalq jonli so'zlashuvida keng qo'llaniladi.

Davr o'tishi bilan insonlarning tajribasi ham orta boradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu asarlarning har taraflama, ham g'oyaviy jihatdan, ham mazmun jihatidan eng yuksak hamda yetuk namunasi bu albatta, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidir. Yana shuni ta'kidlash joizki, har bir asar yaratilayotgan davrning eng dolzarb muammolarini aks ettirishini inobatga olsak, G'azzoliy, Gulshahriy va Attor asarlarini ham bu tipdagi yuksak asarlar desak bo'ladi.